

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI  
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI  
PEDAGOGIKA FAKULTETI  
“TASVIRIY SAN’AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI»  
KAFEDRASI

**Mustafoyeva Dildora Kamoliddinovnaning**

***Ixtisoslashgan maktablarda qalam- tasvir fanini o`qitishning ilmiy-  
metodik asoslari*** mavzusidagi

5140700- “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi» ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha  
bakalavr darajasini olish uchun yozgan

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Ilmiy rahbar:** o‘qituvchi *M.X.Nurmatov*

**Navoiy 2014**

## MUNDARIJA

### **KIRISH:**

**I-BOB.** Maktablarda taviriy san`at darslarining maqsad va vazifalari....

- 1.1. Tasviriy sana`at davlat ta`lim standartlari va darslarning mazmuni.....
- 1.2. Tasviriy san`atda, qalam tasvir fanining tutgan o`rni va o`qitish jarayonida milliy istiqlol g`oyasi.....

**II-BOB.** Iqtisoslashgan maktablarda qalam tasvir fanining ilmiy-metodik asoslarining tahliliy qismi.....

- 2.1. Qalam tasvir fanining ilmiy-metodik asoslari.....
- 2.2. Tasviriy san`at ustalarining qalamtasvir haqidagi fikrlari va qalam tasvir lavhalari.....

**Umumiy xulosalar va tavsiyalar**.....

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati**.....

## KIRISH.

**Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi** 1997-yili O`zbekiston Respublikasida ta`lim tizimini rivojlantirish bo`yicha “Ta`lim to`g`risida»gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilindi. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da estetik turkumdagi fanlarni o`qitilishiga alohida e`tibor berilgan bo`lib, xususan uning “Uzluksiz ta`limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari» qismida uzluksiz ta`limning faoliyat ko`rsatish prinsiplaridan biri ta`limning ijtimoiylashuvi deb qaraldi. U ta`lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, yuksak ma`naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish<sup>1</sup> lozimligini qayd etadi.

Tasviriy san`at ilm-fan kabi dunyoni, hayotni, tabiatni, xalqlar tarixini o`rganishga xizmat qiladi. Tasviriy san`atning paydo bo`lishi ibtidoiy jamoa davriga borib taqaladi. Bu vaqtda kishilar tevarak-atrofdan sodir bo`layotgan voqealarni, odam va hayvonlarning tasvirini toshlarga chizib, ularni kesib turli ko`rinish va mazmundaga haykallarni yasaganlar. Qadimdan kishilar san`at, tabiat hodisalari va kishilarning o`zaro munosabatlari, faoliyatlariga, xulqiga ijobiy ta`sir ko`rsatadi, deb hisoblaganlar.

Istiqlol tufayli o`zining mustaqil taraqqiyot yo`lidan borayotgan jamiyatimiz kun sayin demokratlashib, davlat, jamiyat va shaxs munosabatlari tobora ko`proq estetik va badiiy tarbiyaga bo`lgan ehtiyoj tamoyillariga asoslanmoqda. Ta`lim tizimi oldidagi davlat buyurtmasi O`zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning asosiy g`oyalarida o`z aksini topgan. Shu jihatdan olganda, umumiy o`rta ta`lim maktablarida bo`ljak boshlang`ich ta`lim o`qituvchilarini tasviriy san`atdan nazariy va amaliy mashg`ulotlarda metodik jihatdan tayyorgarligini takomillashtirish hamda fanni o`qitishni modernizatsiyalash o`zining ko`p qirrali maqsad-vazifasi bilan ajralib turadi va ta`lim tizimi oldiga bir qator vazifalarni ko`ndalang qilib quyadi.

Jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida barkamol insonni tarbiyalash eng asosiy, kechiktirib bo`lmaydigan muhim vazifalardan biridir. Prezidentimiz

---

<sup>1</sup> I.A.Karimov. Barkamol avlod-O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent 1998, 44-bet.

Islom Karimov ta'kidlaganidek: “Sog`lom avlodni tarbiyalash buyuk davlat poydevorini, faravon hayot asosini qurish deganidir»

Shu jihatdan olganda, mamlakatimizda sog`lom avlod dasturi harakatining keng tus olgani, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida ta`lim-tarbiya tizimining tubdan isloh etilayotgani ham ana shu ulug`vor vazifani amalga oshirish yo`lidagi muhim qadamdir.

O`zbekiston Respublikasi mustaqil Davlat suverenligini qo`lga kiritgan birinchi kunlaridanoq uzluksiz ta`lim tizimida amalga oshirilayotgan keng islohotlar milliy ta`lim-tarbiya tizimini takomillashtirishga, zamon talablari bilan uyg`unlashtirilgan, jahon andozalari darajasiga mos “milliy modelni» hayotga tadbiq qilishga qaratildi. Jamiyatimizdagi fuqarolar tafakkurini yangilash, milliy o`zlikni anglash, milliy va umumbashariy qadriyatlarni o`zlashtirish orqali, o`quvchilarning iste`dodlari, qobiliyatlarini tadqiq etish, estetik tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish davlat umummilliy siyosati darajasidagi masalalardan biri sifatida belgilab berilishi yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish uchun ta`lim-tarbiyaning barcha sohalarida, ularning omillari va vositalarini ishga solishni taqozo etmoqda.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov shaxsning ma`naviy sifatlariga, ularni tarbiyalash ijtimoiy va insonparvarlik ahamiyatiga alohida e`tibor berib: “Biron-bir jamiyat ma`naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma`naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o`z istiqbolini tasavvur eta olmaydi»<sup>2</sup>, – deb alohida ta`kidlaydi.

Tasviriy san`at o`quv fani umumiy o`rta ta`lim fanlari ichida ma`naviy sog`lom avlod tarbiyasi masalasini ijobiy hal etishda keng imkoniyatlarga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Chunki, aynan tasviriy san`at darslarida san`at va san`atkor olami, san`atning ijtimoiy vazifasi va o`ziga xos xususiyati, uning tasviriy ifodaviy «tili»ni o`rganib borish orqali o`quvchilar atrof muhit, tasviriy, amaliy san`at va me`morlikdagi go`zalliklarni ko`ra bilish, anglash, ularni baholash, qadrlash va muhofaza qilishni o`rganib boradilar.

---

<sup>2</sup> I.A.Karimov. Barkamol avlod-O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent 1998, 7-bet.

Umumiy o`rta ta`lim maktablarida tasviriy san`at o`quv predmetining maqsadi barkamol, komil insonni ayniqsa, badiiy madaniyatini shakllantirishdir.

Prezidentimiz I. A. Karimovning "... biz o`z tariximizni xolisona va haqqoniy baholab, ma`naviy merosimizni boyitish va rivojlantirishga o`z hissamizni qo`shishimiz, shu asosda bugungi jahon ilm-u fani va ma`daniyatining yuksak cho`qqilarini egallashdek buyuk vazifaga har tomonlama munosib va qodir bo`lishimiz darkor»<sup>3</sup> – deb aytgan fikrlari o`rinli.

Yoshlarni barkamol inson etib tarbiyalashda tasviriy san`at fani alohida ahamiyat kasb etadi.

Ayni paytda tasviriy san`at asarlari kishilarning his tuyg`ulariga kuchli ta`sir ko`rsatish imkoniyatiga ham egadir. Kishilar tasviriy san`at asarlarini tomosha qilish orqali, ularda ifodalangan go`zallikni ko`rish orqali o`z hayotlariga ana shunday go`zallikni kiritishga harakat qiladilar, asarlardagi qahramonlarni ko`rib esa ularga o`xshashga intiladilar. San`at asarlarida ifodalangan salbiy voqealar, xunuk xatti-harakatlarni ko`rib, ulardan muayyan xulosalar chiqaradilar, bunday hodisalardan yiroq bo`lishga intiladilar.

Ayniqsa, tarixiy mavzudagi san`at asarlarini tomosha qilganda, o`sha davrdagi tabiat manzaralari, narsa va buyumlar, mehnat va jang qurollari, kishilar hayoti, ularning kiyimlari, urf-odatlar bilan tanishadilar, qurilishlar, binolar haqida tasavvurga ega bo`ladilar.

Hozirgi vaqtda maktablarimizning asosiy vazifalaridan biri o`quvchilarda borliqni faqat ijodiy o`zlashtirishga bo`lgan ehtiyoj va qobiliyatini shakllantirishgagina eraas, balki go`zallik qonunlari asosida borliqni qaytadan qurish hissini tarbiyalash hamdir. Jamiyatimizning har bir kishisi qaysi sohada ish olib borayotganligidan qat`i nazar, go`zallik va nafislikni ko`ra olish va tushuna bilishi kerak. O`quvchilarni estetik jihatdan tarbiyalash maqsadida o`qituvchi ularga tabiatdagi go`zalliklarni, shakl va ranglarning turli-tumanligini ko`rsatadi. Bolalarga quvonch, hayajon baxsh etgan tabiat go`zalliklari, so`z bilan tasvirlab bo`lmas rang birikmalari uzoq vaqtlargacha ularning xotirasida qoladi. Manzara,

---

<sup>3</sup> I.Karimov. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. T., "Ma`naviyat" 2008, 52-bet

daraxtlar, barglar va gullarning o'ziga qarab rasmini chizish, ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish orqali bolalar tabiatga ko'proq qiziqadigan bo'ladilar. Bunday darslar bolalarga dunyoni keng va atroflicha ko'ra olishga, shuningdek, ko'rish orqali olgan taassurotlari doirasini kengaytirishga, narsalar haqida aniq va to'liq tushunchalar hosil qilishga yordam beradi. Rasm chizish jarayonida bolalar narsalarning shakli, mutanosibligi, fazodagi holati, rangi va och-to'qlik nisbatlarini diqqat bilan o'rganadilar.

Tasviriy san'at mashg'ulotlari o'quvchilarning ko'rish orqali idrok etishini o'stiradi. Ko'z orqali idrok etishni rivojlantirish deganda biz maqsadga muvofiq kuzatish qobiliyatini tushunamiz, ya'ni narsa va hodisalarni solishtirish, ularning farqi va umumiy tomonlari va tashqi ko'rinish jihatdan klassifikasiyalashni anglaymiz. So'nggi paytlarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, odamlar tashqaridan olayotgan har qanday ma'lumotlarning 90% idan ortiqrog'ini ko'z bilan ko'rish orqali oladilar. Bu kishilar hayotida ko'zning ahamiyati beqiyos katta ekanligini ko'rsatib turibdi va u ko'z faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ta'lim va tarbiyaviy ishlarni rivojlantirishni taqozo etadi. Maktabda ko'z xotirasini rivojlantirishda tasviriy san'at predmeti ko'p imkoniyatlarga ega. Shu nuqtai nazardan qaraganda, tasviriy san'atning kishilar hayotidagi o'rni yanada oydinlashadi.

Shunday qilib, maktabda tasviriy san'atni o'qitish orqali bir qator ta'lim va tarbiyaviy vazifalar amalga oshiriladi. Bu vazifalarni amalga oshirish o'quvchilar tafakkurini rivojlantirish imkonini beradi, ularning tevarak-atrof haqidagi tushunchalarini umumlashtiradi va chuqurlashtiradi. Tasviriy san'at va badiiy mehnat ikkita predmetni o'zida mujassamlashtirganligi sababli har biri haqida alohida to'xtalib o'tishni lozim topdik.

Maktabda tasviriy san'atni o'qitish realistik rasm chizishni o'rgatishni, uning hayotda kishilarga qanday foyda keltirishini atroflicha ko'rsatib berishni maqsad qilib qo'yadi. O'qituvchi suhbat jarayonida rasm chizishni bilish har qanday mutaxassislikda qo'l kelishini tushuntirib beradi. Buni u hayotdan olingan misollar, madaniyat arboblarning fikrlari asosida bayon qiladi.

Rassomlar o'z asarlarida hayotni qanday ko'rsalar o'shanday emas, balki undagi alohida e'tiborga molik, xarakterli ko'rinishlarni tanlab oladilar, e'tiborsiz, ikkinchi darajali ko'rinishlarni tushirib qoldiradilar, eng muhimlarini esa bo'rttirib ko'rsatadilar. Tanlash va bo'rttirish orqali rassomlar narsa va hodisalarning kishilar tafakkuri va hissiyotlariga samarali ta'sir ko'rsatishiga erishadilar. Rassom borliqni shunchaki biladigan kishigina emas, balki u avvalo, boy tasavvur va tafakkur qilish qobitiyatiga ega bo'lgan ijodkordir. U o'z ijodida borliqni shunchaki aks ettiribgina qolmay, balki unga asoslangan holda nimalarnidir o'zi o'ylab topadi, tasavvur etadi va to'qiydi.

Demak, san'at asarlari o'z mazmunida borliqni aks ettiribgina qolmasdan, ayni paytda ular rassomning g'oyalarini ifodalaydi, tomoshabin ongini boyitadi. Shu bilan birga bunday asarlar kishilar ruhiyatiga ta'sir ko'rsatib, ular ma'naviy olamini, bilim va tajribasini kengaytiradi.

### **Malakaviy bitiruv ishining maqsadi –**

Men o'z malakaviy bitiruv ishimda « O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida tasviriy san'at mazmuni.». Tasviriy san'atni yaxlit idrok qilish va rang munosabatlari bilan ishlash usullari haqida umumiy tushuncha berishni,

– « O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida tasviriy san'at mazmuni.». Tasviriy san'at faning bolalarga yaxlit idrok qilish va rang munosabatlari bilan ishlash usullarini bayon etishni

–« O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida tasviriy san'at mazmuni ». Tasviriy san'at faning bolalarga yaxlit idrok qilish va rang munosabatlari bilan ishlash usullariga doir bir nechta misollar keltirishni o'z oldimga maqsad qilib qo'yaman.

### **Malakaviy bitiruv ishining maqsadi–**

Men o'z malakaviy bitiruv ishimda “Ixtisoslashgan maktablarda qalam- tasvir fanini o'qitishning ilmiy-metodik asoslari” haqida umumiy tushuncha berishni,

qalamda ishlashning o'ziga xos texnika va usullariga doir bir nechta misollar keltirishni o'z oldinga maqsad qilib qo'yaman.

**Malakaviy bitiruv ishining vazifalari:**

–bu qalam- tasvir fanini o'qitishning ilmiy-metodik mavzusini o'rgatishda maktab o'quvchilari uchun yengil usullardan foydalanib o'tish orqali bilim berish.

– qalam- tasvir fanini o'qitishning ilmiy-metodik mavzusini o'tishda innovatsion texnologiya usullaridan o'rinli foydalana olish orqali bilim berish

**Malakaviy bitiruv ishi tuzilishi:** kirish, ikki bob, umumiy xulosalar va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, jami 77 sahifani tashkil etadi.

**Malakaviy bitiruv ishining ilmiy yangiligi:**

–Maktab o'quvchilarining tasviriy san'at darslarini yaxshi o'zlashtirishlari uchun ilmiy-nazariy jihatdan metodlari ishlab chiqildi;

– Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarida “tasviriy san'at” fanining imkoniyatlari aniqlandi va tahlil etildi;

– Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarida tasviriy san'at darslarida qalamtasvir mavzusini o'rgatishning pedagogik asoslari, sharoitlari, omillari va sabablari aniqlandi;

**Tadqiqot ishimizni yozishda quyidagi:**

Analitik tahlil, qiyosiy tahlil – pedagogik kuzatuv, tajriba-sinov, tasviriy san'atning zamonaviy metodlaridan unumli foydalana oldik.

## **I-BOB. Maktablarda tasviriy san`at darslarining maqsad va vazifalari.**

### **1.2. Tasviriy sana`at davlat ta`lim standartlari va darslarning mazmuni.**

Umumiy o`ra ta`lim maktablarida tasviriy san`at o`quv predmetining maqsadi barkamol, komil insonni uning badiiy madaniyatini shakllantirishga qaratiladi.

Tasviriy san`at o`quv predmeti har har bir inson uchun zarur bulgan badiiy madaniyatga doir elementar bilim va malakalar beradi. Chunki har bir uquvchi kelajakda qaysi sohada ishlashidan qatiy nazar u ishdan tashqari vaqtlarida dam olishi, hordiq chiqarishi, ish vaqtida sarflangan quvvatini tiklashi kerak bo`ladi. Bunga u yuksak badiiy saviyada ishlangan san`at asarlari bilan muzey, ko`rgazmalar va boshqa joylarda tanishish, ularni idrok etish, ulardan zavqlanish orqali erishadi. O`quvchilar o`zlarining kelajak hayotlarida ma`lum miqdorda rasm ishlashlariga to`g`ri keladi.

Rasm chizishni bilish, faqat rassomlar, dizaynerlar, me`morlar uchungina emas, u o`qituvchilar, injinerlar, mediklar, quruvchilar, agranomlar, harbiylar, olimlar uchun ham zarurdir. Maktablar o`z nomiga ko`ra umumiy o`rta ta`lim maktablari deb nomlanib, bolalarga boshqa fanlar qatori tasviriy, amaliy va me`morchilik san`atlaridan umumiy, elementar bilim va ko`nikmalar berishni vazifa qilib qo`yadi. Yana shuni ham ta`kidlash kerakki, umumiy o`rta ta`lim maktablari rassomlarni tayorlamaydi, iqtidorli bolalar bilan ishlash, ularni rivojlantirish bilan ham shug`ullanishni nazarda tutmaydi.

Rassomlar tayyorlash, iqtidorli bolalar bilan ishlash maktab to`garaklarida, maxsus maktab va akademik litseylarda, kollej va oliy o`quv yurtlarida amalga oshiriladi. Shuning uchun umumiy o`rta ta`lim maktablarida hadda ziyod bolalarni qiynab qo`yadigan, ortiqcha zo`riqishga olib keladigan topshiriqlar berishga harakat qilish to`g`ri emas.

Maktabda tasviriy san`at mashg`ulotlarining vazifalari haqida to`xtalganda ularni shartli ravishda ikki qismga bo`lish mumkin.

1. Tasviriy san`at darslarining o`ziga xos, maxsus vazifalari hisoblanib ular: borliqdagi va san`atdagi go`zalliklarni ko`ra bilish, idrok etish, tushinish va qadr-

lashga o`rgatish; estetik va badiiy didni o`stirish; bolalar badiiy fikr doirasini kengaytirish; badiiy ijodiy qobiliyat va fantaziyani rivojlantirish; tasviriy san`atning nazariy asoslari (yorug`,soya,rangshunoslik, perspektiva, kompazitsiya ) bilan tanishtirish; rasm ishlash, haykal yasash, badiiy qurish-yasash yuzasidan elementlar, malakalar hosil qilish; kuzatuvchanlik, ko`rish xotirasi, chamalash qobiliyati, fazoviy va obrazli tasavvurlarini, abstrakt va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish; tasviriy, amaliy me`morchilik san`at asarlarini tushungan holda o`qiy olishga o`rgatish; san`atga nisbatan qiziqish uyg`otish uni qadrlashga, sevishga o`rgatish.

2.Tasviriy san`at drslarining qo`shimcha vazifalari,ular; bo liqni, hayotni bilishga ko`maklashish; milliy g`urur va milliy istiqlol mafkurasini amalga oshirish; bolalarga axloqiy (vatanparvarlik, baynalminnal); mehnat, jismoniy tarbiyani amalga oshirish; bolalarni turli kasb va hunarga yo`llash.

Tasviriy san`at o`quv predmetining maqsadi va vazifalari haqida to`xtalganda yana shuni qayd qilish lozimki, u maktabda o`qitiladigan deyarli barcha o`quv predmetlari bilan bog`lanadi va ular yuzasidan materiallarni o`zlashtirishga samarali ta`sir ko`rsatadi. Ayniqsa u o`qish, adabiyot, geografiya, tabiatshunoslik, biologiya, tarix, matematika, mehnat darslarida alohida ahamiyat kasb etadi. Tasviriy san`at, hattoki, jismoniy tarbiya, kimyo, musiqa darslari uchun ham foydalidir. Shuni ham qayd qilish lozimki tasviriy san`at estetik tarbiyani amalga oshirishga qaratilgan bo`lsada u axloqiy, mehnat, ekologik, jismoniy tarbiya darslari samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Maktabda tasviriy san`at estetik tarbiyani amalga oshirishga yo`naltirilgan asosiy o`quv predmeti hisoblanib, u quyidagi yo`nalishlarda amalga oshiriladi:

- o`quvchilarning tabiat, san`at va hayotdagi go`zalliklarni idrok etishga o`rgatish:
- o`quvchilarning estetik didini tarbiyalash, go`zallikni baholay olish qobiliyati, haqiqiy go`zallikni xunuk voqea va narsalardan farqlay bilishga o`rgatish;
- shaxsning tasviriy-ijodiy faoliyatida o`zini ko`rsata bilishga, hatti-harakatini qo`llab-quvvatlash va hayotga go`zallik kiritish malakalarini o`stirish:
- bolalarning badiiy fikr doirasini kengaytirish va boshqalar.

Tasviriy san`at o`quv predmeti o`z xarakteriga ko`ra estetik tarbiyaning asosini tashkil etuvchi estetik idrok, estetik zavq, estetik his- tuyg`u, estetik did, estetik mulohaza, estetik baholash, estetik ijod kabi sifatlarni o`stirishda katta rol o`ynaydi. Dekarativ kompazitsiya darslarida o`quvchilar naqshlar, amaliy san`at buyumlaridagi go`zallikni his qiladilar va o`zlari ham shunday kompazitsiyalar tuzishga harakat qiladilar.

O`quvchilarni tabiatdagi narsalarning yorqin va yaltiroqligi, nafis va tozaligi, ular bo`laklarining qaytarilishi yoki almashinishi, simmetrik tarzda joylashuvi to`lqinlantiradi. Tabiatdagi gullarning rang va shakllarining turli-tuman bo`lishi, kapalak va ninachilar, qushlarning engil pardozi, bahorgi va kuzgi manzarlarning chiroyi, majnuntolning suluvligi, maysazorlarning quyosh nuri ostida jilvalanishi, uy derazalarning kechki miltillab ko`rinishi hayajonlantiradi. Bolalarda bunday his tuyg`uning o`sishi, ularda predmet va hodisalar xususiyatlarini estetik baholashni malakalarining shakllanishiga olib keladi. Bolarning faoliyatlarida obrazli iboralarning, ya`ni “xush bichim”, “quvonchli”, “bayramdagidek” ishlatilishi ularda borliq va hodisalarni estetik idrok etish malakalari shakllanayotganligidan dalolat beradi.

O`qituvchi shoxcha va barg chiqargan daraxtlarni bolarga ko`rsatish orqali yosh barglarni rangi och-yashil va nozik ekanligini qayd etadi. Bahorgi yomg`irdan so`ng o`simlik barglarining tozaligini, ularni xuddi yuvib qo`ygandek ko`rinishi, ulardagi yomg`ir donalarining kumushdek yaltirrab ko`rinishini ta`kidlaydi. Kuz faslidagi tabiatda daraxt barglarining sariq va qizg`sh ranglarining oltin tusga kirganligini, to`kilgan barglarining shildirab “gaplashishi” obrazli ko`rinishda ifodalanaadi.

Bolalar o`z rasmlarida uy, daraxt, qushlar, hayvonlar, odamlar, transport vositalarini tasvirleydilar. Bundan ular so`zsiz tasvirlanuvchilarning o`lchovlari, proporsiyalari, fakturasi, shakllari, rangiga duch keladilar va ularni rasmda kompazitsion jihatdan to`g`ri joylashtirishga harakat qiladilar. Bu esa ularning tuzilishidagi proporsionallik, mukammallik, maqsadga muvofiqlik haqida fikr yuritishga undaydi. Bolalar narsa va hayvonlarni shakl va rang jihatidan o`ziga jalb

etadigan tomonlari, ularni qayisi tomondan chiroyli ko`rinishi, ularning yaxshi va foydali tomonlari nimada ekanligi haqida o`ylaydilar. O`quvchilar tabiatdagi narsa va hodisalar haqida o`ylar ekanlar, o`qituvchi o`z e`tiborini ularning tushinchasiga mos bo`lgan voqea va hodisalarning go`zalligi va mukammalligiga qaratadi. U go`zallik kechinmalari orqali bolalarni tevarak-atrofdagi hodisa va voqealarni baholay olishga o`rgatishga harakat qiladi, insonparvarlik, vatanga muhabbat, mehnatga ishtiyoq his-tuyg`ularini uyg`otadi.

Tasviriy san`at bolalarni borliqni, hayotni bilishga yordam beradi. Ular narsa va hodisalar rasmini chizishga kirishishdan avval narsalarning tuzilishi, shakli, o`lchovlari, rangi, fazoviy holatlarini o`rganadilar va ularni o`z ishlarida tasvirleydilar. Kuzatilayotgan jonli narsalarning hayoti haqida ham tasavvurga ega bo`ladilar, natijada bolalarning dunyo haqidagi tasavvurlari chuqurlashadi kengayadi, xotiralari rivojlanadi.

Tasviriy san`atning tarixiy, batal janridagi rangtasvir asarlari, adabiy asarlarga ishlagan ilyustratsiyalarni kuzatish asosida bolalar ming yillar oldin yashab o`tgan ajdodlarimizning turmush tarzi, madaniyati, kiyinishi, ish qurollarini bilib oladilar. O`sha davrdagi binolar, o`simliklar, hayvinlar, buyumlarning tuzilishi, shakli, rangi, o`lchovlari haqida tasavvurga ega bo`ladilar. Ma`lumki bolalar, tarixiy, batal, manzara, turmush, natyurmort, animal, afsonaviy janrlarda ishlagan rasmlarda tarixiy voqealar, jangu-jadallar, xalqlar hayoti, hayvonlar, shahar va tabiat manzaralari haqida ko`pgina bilimlarga ege bo`ladilar.

Tasviriy san`atni o`qitish jarayonida, qo`yiladigan topshiriqlar o`quvchilarni birdan-bir va betakror o`z shaxsini, aqliy imkoniyatlarini namoyon etishga yo`llaydi. Bolalar o`quv topshiriqlarini echishda o`zlarini ijodkor bo`lishga undaydilar. Ular ijodkor uchun avvaldan ma`lum bo`lgan yo`ldan muammoni tez va oson hal qilib qo`yaqolmay, balki masalani yangicha, qaytarilmas echimlar orqali o`larining ijodkorlik va hayolotlarini, me`yor va uyg`unlik sifatlarini ishga soladilar. Natijada, ma`lum miqdorda original, yangi qaytarilmas ijod mahsuli dunyoga keladi.

Ijodkorlik, ijodiy fikrlaydigan shaxslar ular oddiy ijrochilar emas, ular jamiyatni rivojlantiruvchi asosiy kuchidir. Shuning uchun ham jamiyatimizga robotsimon ijrochilar emas, fikrlovchi, izlanuvchan, ijodkor, tashabbuskor kishilar kerak. Jamiyatimizning ravnaqi ko'p jihatdan mashunday kishilarga bog'liqdir. Jamiyatimizda fikrlaydigan, izlanuvchan, ijodkor, hayotda ko'zda tutilmagan har qanday vaziyatlardan muammoni tez va oson echimini topa oladigan kishilar xalqimizni taraqqiyotini yanggi bosqichlarga ko'taradilar.

Ijodiy tafakkyr butunlay yangi g'oyalar va tasavvurlarni vujudsa keltiradi, shaxsda yashiringan qobiliyat va imkoniyatlarni, o'ziga xoslikni ro'yobga chiqishiga yordamlashadi. Shuni ham alohida qayd qilish lozimki, bunday sifatlar faqat olimlar uchunguna emas, balki hamma sohada ishlovchilar (injinermi, vrachmi, dehqonmi, nonvoymmi v.b) uchun muhimdir.

Tasviriy san'at o'quv predmetining muhim vazifalaridan biri u bolalarda kuzatuvchanlikni o'stirish, borliqni ko'ra bilish, qolaversa shu orqali xotirani rivijlantirish hisoblanadi. Ma'lumki, odamzod tevarak-atrofdan olayotgan axborotlarning deyarli 90% dan ortig'ini ko'z orqali oladi, qolgan 10% ni quloq, burun, og'iz v.b. a'zolar orqali o'zlashtiradi. Bundan ko'rinib turibdiki, kishilar faoliyatida ko'z va xotirani rivojlantirish nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Bu sifatlar bolalar tomonidan borliqni idrok etish mashg'ulotlarida, shuningdek, naturadan tasvirlash, san'at shunoslik asoslari mashg'ulotlarida alohida ahamiyatlidir. Bundan darslarda o'quvchilar narsalar va hodisalarning tuzilishi, shakli, rangi, o'lchovlari, fazoviy joylashishi, harakat go'zalligini kuzatadilar hamda ularni o'z xotiralarida saqlab qolishga harakat qiladilar.

Kuzatuvchanlikni mohiyati shundaki, bunda bolalar narsa va hodisalar haqida keng va chuqur tasavvurga ega bo'ladilar. Maslan, kuzatuvchanligi rivojlanmagan kishilar gulni kuzatar ekanlar, unga nisbatan yuzaki yondoshadilar, ya'ni gul bandi, guli, yaproqlari, gul rangiga o'z e'tiborlarini qaratadilar.

Kuzatuvchanligi rivojlangan kishilar esa gullarning gul bandi, guli, yaproqlari va boshqalarning o'lchovlari, o'lchov nisbatlari, har bir qismning rangi, yaproq va gulbarglarning joylashuvini bir ko'rishdayoq eslab qoladilar. Bolalar-

ning kuzatuvchanligi va sinchkovligi, o`z o`rnida narsalar haqidagi ma`lumotlarni xotirqda yaxshi saqlanib qolishga ta`sir ko`rsatadi. Shning uchun ham xotirani ayniqsa, ko`z xotirasini rivojlantirishda tasviriy san`at o`quv predmetining qanchalik ahamiyatli ekanligi oydinlashadi.

Tasviriy san`at darslarining eng muhim vazifasalaridan biri tasviriy, amaliy va me`morchilik san`atlari asarlarini o`qishga o`rgatishdir. Tasviriy san`at asarlari ertak, hikoya, doston, roman kabi ma`lum bir mazmunni aks ettiradi. Biroq uni kitob o`qigandek o`qib bo`lmaydi. Tasviriy san`at asarlarini o`ziga xos tili bor. Ularni bilgan kishilargina o`qiy oladilar. Xususan rassomlar, chiziqlar, ranglar, o`lchovlar, kompozitsiya, proporsiya, ritm, simmetriya shakl kabi ifodalilik vositalari yordamida asar mazmunini ochib beradilar.

Tasviriy san`at o`quv predmeti yoshlarning estetik tarbiyasida ahamiyatli bo`libgina qolmay balki, axloqiy tarbiyada ham salmoqli o`rinni egallaydi. Ayniqsa, tasviriy san`at darslari yoshlarda milliy istiqlol mafkurasini shakllantirishda, vatanparvarlik va baynalbinnal tarbiyada, do`stlik va o`zaro yordam g`oyalarini tashkil toptirishda katta kuchga ega. Maktab tasviriy san`at dasturiga nazar solar ekanmiz unda Vatanimizning buyuk o`tmishi, vatandoshlarimizning mustaqillik uchun olib borgan kurashlari, O`zbekistonning nafosatga to`la tabiati, xalqlar do`stligi g`oyalarini ifoda etuvchi tasviriy san`at asarlari bilan to`lib toshganligining shohidi bo`lamiz.

Masalan ona tuproq uchun kurash olib borgan, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Spitamen, Muqanna kabi buyuk vatandoshlarimiz hayoti va obrazlarini, O`zbekistonning rango-rang go`zal manzaralarini, o`zbek xalqining Respublikamizda yashayotgan boshqa millat vakillari bilan tinch-totuv mehnat qilayotganiligini tasvirlovchi tasviriy san`at sarlari mavjud. Ularni o`rganish jarayonida bolalar san`atining qonun va qoidalari bilan tanishadilar, yuqorida qayd qilingan mazmunda rasmlar ishlaydilar.

Inson uchun zarur bilimlar miqyosi tobora kengayib borayotgan hozirgi sharoitda muayyan faktlar yig`indisini o`zlashtirish bilan cheklahnib bo`lmaydi. Shuning uchun o`quvchilarga o`z bilimlarini mustaqil ravishda to`ldirib va boyitib

borishni, o`zining diqqat-e'tiborini ilmiy va siyosiy axborotlarning eng muhimlariga qaratishni o`rgatish kerak. Bu vazifa o`quvchilarning tasviriy san`at darslarini ta'lim-tarbiya jarayoni bilan uzviy bog`liq xolda kengaytirish va rivojlan tirishni taqozo etadi.

O`quvchi maktab binosiga, uning yonidagi uchastkaga, o`yin hamda sport maydonchalariga qarab, ulardagi go`zallikni his etishi, umuman maktabning qiyofasi undan o`zi bilim oladigan muhit haqida ijobiy tasavvur hosil qilishi lozim. Bunda puxta o`ylab, chiroyli qilib bezatilgan va aloxida e'tibor bilan qarab turiladigan tabiat burchagi, did bilan ishlov berilgan yo`lakcha va gulzorlar, maktab hovlisiga kiraverishdagi memorial taxta, kosmosni zabt etish, mehnat, harbiy jasorat ko`rsatgan o`g`lonlarimiz kabi temalardagi stendlar, maktab binosining joylashishi tasvirlangan panolar va hokazolar katta yordam beradi. Mana shularning hammasida mazkur maktabga xos badiiy bezash uslubi, turli xildagi go`zal partretlar ko`zga yaqqol tashlanib turishi shart.

Maktab binosining kiraverishda unga nomi berilgan shaxsning byusti yoki portreti, prezident burchagi, o`quvchilarning ijodiy ishlaridan namunalar ko`zga tashlanib turishi kerak. Imkoni bo`lsa, mehnatda ibrat kursatgan ota-onalarning rasmlari qo`yilgan stend tayyorlash ham maqsadga muvofiq.

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 1999 yil 16-avgust qaroriga ko`ra 1999-2000 o`quv yilidan boshlab umuman o`rta ta`lim maktablarida barcha fanlar qatori tasviriy san`at ta`lim bo`yicha ham davlat ta`lim standartlari joriy etildi. Davlat ta`lim standartlarini ishlab chiqilishi avallo O`zbekistonning mustaqilligi, uning jahon hamjamiyatiga faol kirib borayotganligi bilan bog`landi.

Hozirda har bir fan bo`yicha, shu qatori badiiy-estetik turkumdagi fanlardan davlat ta`lim standartlarining yaratilishi, uni hukumat tomonidan tasdiqlanishi katta ilmiy va ahamiyatga ega bo`lgan voqead. Mazkur standartlar O`zbekiston tarixida birinchi bor yaratilishi bo`lib, u respublikamiz maktablarida ta`limni yuqori ilmiy-metodik asosda tashkil etish hamda uni jahon standartlari darajasiga olib chiqishga sharoit yaratadi.

Standart tomonidan qo'yilgan talablarni to'g'ri va benuqson bajarish uchun imkon berishi bilan bir qatorda, amaliyotda qo'llanib kelayotgan dastur, darslik va metodik qo'llanmalardagi kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etish imkonini ham beradi. Shuningdek, u maktablarda ta'lim ishlarini nazorat qiluvchi tashkilotlar uchun ham asosiy hujjat vasifasini o'taydi.

Davlat standartiga ko'ra tasviriy san'at ta'limi mazmuni boshlang'ich sinflarda quyidagi to'rt yo'nalishda bayon etilgan:

1. Borliqni idrok etish.
2. Badiiy qurish- yasash.
3. Naturaga qarab tasvirlash.
4. Kompazitsion faoliyat.

Beshinchi – ettinchi sinflarda esa u quyidagi uch yo'nalishda o'z aksimi topgan:

1. San'atshunoslik asoslari.
2. Naturaga qarab tasvirlash.
3. Kompazitsion faoliyat.

Mazkur yo'nalishlar bo'yicha tasviriy san'at o'quv predmetini o'qitishda har bir o'qituvchi asosiy e'tiborni nimalarga qaratilishini bilib olishi kerak bo'ladi. Tasviriy san'atni o'qitishda o'qituvchining e'tibor berishi lozim bo'lgan asosiy jihatlar quyidagilardan iborat :

1.O'quvchilarni borliqdagi (tevarak-atrofdagi) va san'at asarlaridagi nafosatni ko'rishga, idrok etishga va undan zavqlanishga hamda qadrlashni o'rgatish :

2.Bolalarni ijobiy, abstrakt, mantiqiy fikrlashga, ayniqsa ijodiy qobiliyatlari va fantaziyalarini o'stirishga yo'naltirish :

3.Tasviriy, amaliy, me'morchilik san'atlari yuzasidan nazariy, biroq umumiy, elementlar bilimlar berish.

4.O'quvchilarga kuzatuvchanlik, ko'z xotirasi, chamalash, fazoviy tasavvur kabi shaxs uchun muhim bo'lgan sifatlarni o'stirish.

5. Rasm va naqsh, haykal ishlash yuzasidan tasviriy malakalarini o'stirish.
6. Estetik his-hayajonni tarbiyalash va rivojlantirish.

## 7. San`atga qiziqishini o`stirish va muhabbatni tarbiyalash.

Bu vazifalar maktabda tasviriy san`at darsini olib boruvchi har bir o`qituvchini mutaxassis bo`lishligini talab etadi. Chunki standart mazmuni, mutaxassis o`qituvchilar uchun mo`ljallab tuzilgan.

Tasviriy san`at ta`limi davlat standarti san`atning uch turi; tasviriy, amaliy va me`morchilik san`atlari mazmunini aks ettirgan bo`lib, u avvalo milliy o`zbek san`atini, uning badiiy ananalarini, ayrim mashhur o`zbek tasviriy, amaliy me`morchilik san`atlari ustalarining hayoti va ijodini, O`zbekistonda san`atning bu turi rivij topgan markazlarni, O`zbekistondagi yirik san`at muzeylarini bilish tasviriy san`at o`quv predmetini vazifalaridan biri ekanligini qayd qiladi. Bundan maqsad milliy san`at vositasida o`quvchilarga badiiy ta`lim berish bilan bir qatorda ularda shaxsni estetik, axloqiy va mehnat tarbiyasini amalga oshirishdan iboratdir. Milliy o`zbek san`atini chet elva jahonning hozirgi zamon ilg`or san`atiga qaraganda kehgrog va chuqurroq o`rgatishdan maqsad har bir o`zbek o`quvchisi o`z xalqining tarixini, adabiyotini bilishi shart ekanligi kabi, uning san`atini ham nisbatan kengroq bilishga erishishdir. Milliy san`at ta`lim mazmunining poydevori bo`lishi lozim.

Ularni o`rganmasdan turib, yoshlarimiz badiiy madaniyatli shaxs bo`la olmaydi. Aks holda milliy qobiqqa o`ralashib qolish oqibatida ular jahon standartlari darajasiga chiqa olmaydilar. Ayniqsa yoshlarimiz qadimgi Misr, Yunoniston, Hindiston me`morchiligi, Afg`oniston, Iroq, Turkiya miniatyura rangtasvir asarlari, Evropada Uyg`onish davri tasviriy san`ati, rivojlangan G`arb mamlakatlarining hozirgi zamon tasviriy va me`morchilik san`ati namunalarini o`rganmasdan turib madaniylashgan shaxs bo`lishi mumkin emas.

Davlat ta`lim standartlari talablarini faqat o`quv rejalarida ajratilgan vaqt hajmida muvofaqiyatli bajarib bo`lmaydi. Chunki yuqorida qayd qilinganidek, ta`lim mazmuniga doir o`quv-metodik majmualar, moddiy texnikaviy asos, yuqori malakali o`qituvchilarning etishmasligi, mavjud muammoni birmuncha murakkab lashtiradi. Bu esa o`quvchilarni darsdan va maktabdan tashqari mustaqil ishlarini tashkil etishni samarali shakllari va yo`llarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Mazkur muammo bevosita o`quvchilarning mustaqil ishlari

uchun tegishli adabiyotlar, xrestomatik materiallar, moddiy- texnikaviy materiallar, o`quv va metodik yo`l-yo`riqlarni ishlab chiqish bilan bog`langan. Hatto, bu masalada ota-onalarning vazifalari, ish mazmuni haqida o`ylab ko`rish, ularga ma`lum yo`l-yo`riq va tavsiyalar berish foydadan holi emas.

Ma`lumki, bolalarning ta`lim standartlari asosida olgan bilim va malakalarini qanday o`zlashtirganlik darajasini ham tekshirib boriladi. Bu esa standartni sinflar bo`yicha ishlab chiqish lozimligini taqazo etadi.

Davlat ta`lim standartlarida tasviriy san`at ta`limi mazmuniga bo`lgan majburiy minimum talablar bayon etilgan. O`qituvchi uni bajarishi shart. Lekin o`qituvchi bu bilan chegaralanib qolmasdan uni chuqurlashtirishga harakat qilishi lozim. Biroq ta`lim mazmunini yuqori darajada olib chiqaman deb bolalarga keragidan ortiq talablar qo`yish, ularni qiynash ham mumkin emas. Shuni ham yoddan chiqarmaslik kerakki, maktablarimiz nomi umumiy o`rta ta`lim maktab deb ataladi. Demak maktablarimizda umumiy, elementlar bilim va malakalar berilishi lozim.

Davlat ta`lim standartlari bo`yicha ettinchi snifni bitiruvchi o`quvchilar quyida-gilarni bilishlari lozim:

### **Tasviriy san`at yuzasidan;**

- rassomlarning asosiy ish qurollari va ishlatadigan materiallarini – molbert, etyudnik, xolst, mo`yqalam, mastexin, bo`yoqlar, (yog`li,akvarel, gyash, v.b.) pastel, sous, ugol, sangina v.b;

- haykaltaroshlarning asosiy ish qurollari va ishlatadigan materiallarini – dastgoh , bolg`a, stek, loy, tosh, yog`och, v.b;

- haykaltaroshlikda ishlatiladigan ayrim atamalarni- dastgohli haykaltaroshlik, monumental haykaltaroshlik, plastik haykaltaroshlik, istirohat-bog` haykaltaroshligi, real haykaltaroshlik, dekarativ haykaltaroshlik, rel`ef, gorel`ef, barel`ef;

- grafikachi rassomlarning asosiy ish qurollari va ishlatadigan materiallarini ; rangtasvirda ishlatiladigan atamalarni (natura, fon, perspektiva, chiziqli perspektiva, rang perspektivasi, havo perspektivasi, ufq chizig`i) eskiz, yorug` soua, blik, refleks, shaxsiy soya, tushyvchi soya, janr, kompazitsiya, reproduksiya, avto-

portret, frezka, mozaika, vitraj, dastgohli rangtasvir, minatyura rangtasviri, monumental rangtasviri, dekarativ rangtasvir, qoralama, ranglama, etyud, original, slayd, kolorit, gamma, mumtoz san`at;

- ishlatiladigan asosiy atamalarni gravyura, limogrvyura, litografiya, ksilografiya, estamp, gazeta jurnal grafikasi, karikatura, plakat, zarhal harf, bosh bezak, yakuniy bezak zarvara,q, ilyusrtatsya, etiketka, upakovka;

- O`zbekiston hududidan topilgan eng qadimgi rangtasvir va haykaltaroshlik namunalarini;

- O`zbekistonning hozirgi zamon tasviriy san`atini;

- Tasviriy san`atining janrlarini- manzara, turmush, natyurmort, tarixiy, batal, portret, afsonaviy, animal, marina;

- rang nomlarini – bargikaram, gulnor, nilgun, siybob, malla, sadaf, lojuvard, shingob, novvoti, axmar, to`tiyo, firuza, novshadil, to`tigi, nilobi, tilla hal, kumush xil;

- O`zbekiston va jahonning dunyoga mashhur 5-6 rassomning hayiti va ijodini;

- rangtasvir, haykaltaroshlikda, grafikada ijod qiluvchi 50-60 rassom, haykal- tarosh, grafiklarning ismi va familiyasi hamda ularning asarlarini ;

- tasviriy san`atdagi asosiy oqimlarini;

- Sharq miniatyura rangtasviri maktablarini ;

- Movaraunnahr miniatyura rangtasviri maktablarini ;

- O`zbekiston va jahonning mashhur tasviriy san`at muzeylarini .

### **Amaliy-bezak san`ati yuzasidan :**

Amaliy-bezak san`ati ustalarining ish qurollari va ularning ishlatadigan mate-riallarini ;

- amaliy-bezak san`atida ishlatiladigan ayrim atamalarni – naqqoshlik, ganchkorlik, yog`och o`makorligi, misgarlik, kashtachilik, sopolsozlik, zardo`zlik, ko`p-barg, chinnigul, gullola, bodomgul, marg`ula, gulsafsar, qo`shband, stilizatsiya, islamiy, girix, guligirix, nomoyon, ochiq naqshlar, cheksiz naqshlar ;

- amaliy bezak san`atida ijod qiluvchi mashhur 10-15 ustalarning familjalari va ismlari;
- Jahondagi mashhur 3-4 amaliy san`at ustasining hayoti va ijodini ;
- O`zbekistonda xalq amaliy bezak san`ati rivoj topgan markazlarni ; Toshkentdagi O`zbekiston xalq amaliy san`ati muzeyini.

### **Me`morchilik san`ati yuzasidan :**

- me`morchilikda ishlatiladigan asosiy ish qurollari va materiallarni ;
- me`morchilikda ishlatiladigan ayrim atamalarni – memor, jome, minora, rovoq, mezana, ark, gumbaz, maket, muqarnas, navo, koshin, maqbara, mexrob, peshtoq, poydevor, vassa (toqi), poyustun, exrom, order, gotika, romantizm, barakko, klasitsizm, renesans, registon, interer, eksterer ;
- O`zbekiston hududidan topilgan eng qadimgi me`morchilik obidalarini – Afrosiob, Varaxsha, Bolalik tepa, Tuproqqal`a v.b.;
- O`zbekistonning IX-XIX asr va hozirgi zamon mashhur me`morchiligini;
- Jahonning qadimgi va hozirgi zamon mashhur me`morchiligini ;
- Jahondagi mashhur 2-3 me`morning hayoti va ijodini ;

Tasviriy san`at darslarining eng muhim vazifalaridan yana biri, tasviriy, amaliy va me`morchilik san`atlari asarlarini o`qishga o`rgatishdir. Tasviriy san`at asarlari ertak, hikoya, doston, roman kabi ma`lum bir mazmunni aks ettiradi. Biroq uni kitob o`qigandek o`qib bo`lmaydi. Tasviriy san`at asarlarini o`ziga xos tili bor. Ularni bilgan kishilargina o`qiy oladilar. Xususan rassomlar, chiziqlar, ranglar, o`lchovlar, kompazitsiya, proporsiya, ritm, simmetriya shakl kabi ifodalilik vositalari yordamida asar mazmunini ochib beradilar.

Umumiy o`rta ta`lim maktablarida tasviriy san`at o`quv predmetining maqsad vazifalaridan kelib chiqqan va ta`limning davlat standartlariga asoslangan holda ta`lim mazmuni aniqlanadi. Tasviriy san`at dasturida uning quyidagi besh turi belgilangan :

1. Borliqni idrok etish (1-4 sinflarda) .2. Badiiy qurish – yasash (1-4 sinflarda). 3. San`atshunoslik asoslari (5-7 sinflarda ). 4. Naturaga qarab tasvirlash (1-7 sinflarda ). 5. Kompazitsion faoliyat (1-7 sinflarda).

## **Borliqni idrok etish**

O`quvchilarning estetik idroki, didi, mazkur sohaga doir tushunchalari, tasavvur va xotiralarni o`stirishda muhim rol o`ynaydi. Borliqni idrok etish mashg`ulotlari odatda mavzuli kompazitsiyalarni bajarishdan oldin o`tkazilib, unda tabiatdagi va tevarak- atrofdagi nafislik va go`zallikni ko`ra bilish, idrok etish natijasida olingan tassurotlardan amaliy, badiiy-ijodiy faoliyatlarida foydalanish nazarda tutiladi. Shuningdek, tabiatga qilingan sahyohat jarayonida, zarur hollarda ayrim ob`ekt va hodisalarni qalam, bo`yoq va boshqa badiiy materiallar yordamida xomaki rasmlari ham ishlanadi.

Bunday darslarda bolalar sinf va sinfdan tashqari o`simliklar, qushlar, baliqlarni kuzatadilar, tabiatning turli fasllardagi ko`rinishlari, kayfiyati (quvonchli, g`amgin, o`ychan va hokazo) haqida tasavvurga ega bo`ladilar. Boshlang`ich sinflarda borliqni kuzatish va ular haqida suhbatlar o`tkazish, o`quvchilarga hayotdagi ba`zi bir hodisalarni, kengroq bilib olishga yordam beradi. U narsalarning shakli, tuzilishi, rangi kabilarni ma`lum miqdorda tahlil qilish va umumlashtirishdek muhim sifatlarni o`stirishga ham imkon beradi.

Tabiat va borliqni kuzatish jarayonida bolalarni uni sevishtga, asrab-avaylash ga o`rgatiladi. Tabiatga qilingan sayohatlarda ularning ayrim jihatlari fasillarga bog`liq bog`liq holda o`zgarib turishligi bolalarga tushintiriladi. Shuningdek, bunda bolalarni fazoviy tasavvurlari ham o`stiriladi va planlik, chiziqli va havo havo perspektivasiga ham e`tibor beriladi. Borliqni kuzatish bevosita tasviriy ijodiy faoliyat bilan bog`liq ekanligi, borliqni bilmasdan turi sifatli tasviy ishlarni bajarish mumkin emasligi bolalar ongiga etkaziladi.

Borliqni idrok etish mashg`ulotlarini vazifalariga rioya qilgan holda quyidagi mazmunda mashg`ulotlar o`tkazish nazarda tutiladi:

- 1.Kuz, Qish, Bahor fasillarida tabiatni o`ziga xos xususiyatlarini o`rganish;
- 2.Gullar, Hasharotlar, Dekarativ baliq va qushlarni kuzatish;

3.Tabiat mo`jizalari, bahorgi va kuzgi ishlar bilan tanishish vaho-kazolar.

Yuqorida qayd qilinganidek, bunday mashg`ulotlardan maqsad, borliq-ni bilishi, undagi narsa va hodisalarni, o`ziga xos xususiyatlarini, ayniqsa, tuzulishi, rangi, o`lchovlari, o`lchov nisbatlari, fazoviy holatlari, ularni yil fasillariga qarab o`zgarishlarini anglab etishlariga erishishdan iboratdir. O`zgarish zarur bo`lgan ob`ektlarni naturadan kuzatishning imkoni bo`l-magan taqdirda o`qituvchi darsda bolalarni san`at asarlarining reproduk-siyalari, slaydlari, foto nusxalarini namoish etish orqali o`z maqsadiga eri-shadi.

Boshlang`ich sinf tasviriy san`at darslarida o`quvchilarning qiziqishlari va ijodkorligini oshirish va rassomchilikda ishlatiladigan turli materiallar bilan kengroq tanishtirish maqsadida **badiiy qurish-yasash** ishlari ham olib boriladi.

Tasviriy faoliyatning bu qiziqarli turi uchun dasturda alohida soatlar ajratilgan bo`lib, ular mashg`ulotlar mazmunini yanada boyitadi. Qurish-yasash uchun asosan uch xil materiallardan fodalanish nazarda tutiladi;

1. Badiiy materiallar (rangli qog`ozlar, falga, gulqog`ozlar, plastilin, loy va bosh.r ).
2. Tabiiy materiallar (daraxt barglari, shoxlari, ildizlari, po`stlog`lari, meva va sabzavotlarning urug`lari, rangli toshchalar, bug`doy va arpa poyalari v.b.)
3. Tashlandiq materiallar (ichimlik va dori-darmondan bo`shagan sintetik idishlar, gigurt qutichalar, po`kak, penoplast, idish qopqoqlari v. b.)

Badiiy qurish-yasash mashg`ulotlarida bolalarni qaychi bilan ishlash, kley yordamida elimlash, qog`ozlarni narsalar shakliga mos holda buklash, o`rash, ayrim badiiy tashlandiq va tabiiy materiallarni bir-birlariga qo`shish orqali tasvir yaratish kabi malakalar hosil qilinadi. Bu malakalarni hosil qilish boshlang`ich sinflar dasturida bir qator topshiriqlarni bajarishni nazarda tutadi. Ular quyidagilardan iborat:

- turli shakldagi qalamdon, quticha, havo shari, bayroqcha, choynak, lagan, mashina, samaliyot, raketa vashu kabi narsalarni rangli qog`oz va kartondan tasvirini yasash;

-hasharotlar–tilla, qo`ng`iz, ninachi, kapalak va boshqalarni, rangli qog`ozlarni qirqish orqali hosil qilish;

- rangli qog`ozlarni qirqish, buklash va elimlash yo`li bilan osma o`yinchoqlar tayyorlash;

- tabiiy materiallar yordamida baliq, hasharot, qush, hayvonlarning tasvirlarini hosil qilish;

- rangli qog`oz, badiiy va tashlandiq materiallardan aplikatsiya, kollaj, pap`e-mash`e, aralash usulda mazmunli kopazitsiyalar (masalan, “Ko`chada”, “Kosmodromda”, ) ishlash;

- tashlandiq materiallar sim, ip, kanop, gazlama parchalari, plasmas idishlar, gugurt qutichalari, po`kak, penoplast, idish qopqoqlari yordamida unca murakkab bo`lmagan transport (qayiqcha, pir-pirak, mashina, traktor v.b.), qushlar (qaldirg`och, to`ti g`oz, chumchuq, laylak, o`rdak, sa`va v.b.), hayvonlar (tulki, bo`ri, quyon, ayiq, yo`lbars, it, sher v.b.) ning o`yinchoq tasvirlarini ishlash;

- quritilgan barglar, rangli qog`ozlar, shoxlar yordamida ochilgan gul, gullagan daraxt shoxchasi tasvirini tayyorlash v. b.

Badiiy qurish-yasash ishlarida eng muhim vazifalardan biri badiiy, tashlandiq materiallarning o`ziga xos jihatlarini (qattiq, yumshoq, mo`rt, egiluvchan, og`ir, engil, och, to`q v.b.) bilish hamda ular bilan ishlaganda o`lchov va o`lchov nisbatlarini, tuzilishi, shakli ranglarini to`ri belgilash talab etiladi.

Shuningdek qurish-yasash ishlarida qo`llanadigan o`quv qurollari va materiallarini bilish, tabiiy, badiiy, tashlandiq materiallarini bir-birlaridan farqlay olish ham talab etiladi.

Narsalar shaklini ko`ra olish han badiiy faoliyatining bu turi vazifasiga kiradi. Bunday ishlarni bajarganda ish joyini ozoda batartib tutabilishga ham o`rgatiladi.

**San`atshunoslik asoslari** bo`limi o`quv predmetining muhim qismlaridan biridir. U dasturda 5–7 sinflarda mustaqqil bo`lim sifatida o`zining o`quv vazifalari tizimiga ega va u tasviriy, amaliy–bezak, me`morchilik san`atlari materiallaridan tashkil topadi. Mazkur bolimning maqsadi o`quvchilar tomonidan san`at asarlarini ongli idrok etish va baholash uning jamiyat va odamlar hayotidagi ahamiyatini tushinishga yordam berishdan iborat.

San`atshunoslik asoslari bo`limi o`quvchi shaxsining estetik rivojiga ko`maklashib, uni jahon madaniyatining buyuk durdonalari va san`at asarlari orqali tevarak-atrofdagi hayot go`zalliklari bilan tanishtiradi, badiiy didini shakllantiradi, san`atni sevishga o`rgatadi.

O`quvchilar bilan san`atshunoslik asoslari bo`yicha o`tkaziladigan mashg`u- lotlarda ular mumtoz madaniy meros bilan tanishtirib boriladi, uning buyuk ananalari va san`atning xalq uchun xizmat qilishi, san`atdagi turli oqimlar va yo`nalishlar to`g`risida tushinchalar hosil qilinadi.

Tasviriy amaliy san`at asarlarini idrok etishga oid o`quv materiallar o`quvchilarning amaliy ishlari bilan bog`langadir. San`at asarlarining nusxalarini bolalarga ko`rsatish va ularning tahlili o`quvchilarda san`atga qiziqish uyg`otadi va ularni shu sohaga yo`llaydi. Asarlarni namoish etishda bolalar unda ifodalangan g`oya, asosiy fikr va qo`llanilgan badiiy-tasviriy vositalar bilan tanishtiriladi.

Dekorativ-amaliy san`atga doir san`atshunoslik asoslari darslarida, amaliy-bezak san`ati, xalq amaliy-bezak san`ati, o`zbek xalq amaliy-bezak san`ati, liboslar, o`zbek va chet el xalqlarining milliy liboslari haqida bilimlar berish, xalq ustalari ishlatadigan ish qurollari va materiallari bilan tanishtirish nazarda tutiladi. Bunday darslarda Toshkentdai xalq amaliy san`ati muzeyi va Respublikamizdagi xalq maliy san`atining mashhur namoyondalari hisoblan-

gan Usta Shirin Murodov, Ota Polvonov, Hamro Raximova kabilar haqida ham suhbatlar o`tkazish rejalashtirilgan.

Me`morchilik san`ati borasida esa me`morchilik san`ati va uni atrof-muhit bilan bog`liqligi, me`morchilikda go`zallik, maqsadga muvofiqlik haqida tushunchalar berish, individual va ijtimoiy me`morchilik, ularning turlari bilan tanishtirish, binolarning vazifasi va ularning estetik yechimining o`zaro bog`liqligi, fasad va inter`erdagi dekorativ bezaklarning xarakteri, me`morchilikda qo`llaniladigan asosiy atamalar haqida fikr yuritiladi. Binolarning tashqi va ichki badiiy bezaklarining xarakteri, ularda ishlatiladigan materiallar bilan ham tanishtiriladi.

Tasviriy san`atdan davlat ta`lim standartlarida qayd qilinganidek, bolalarga san`atshunoslik asoslari quyidagilar haqida bilimlar berishni nazarda tutadi:

1. Tasviriy san`at - san`atning bir turi ekanligi va uning kishilar hayotidagi o`rni va ahamiyati. O`zbekiston hududida tasviriy san`atning taraqqiyoti (Afrosiyob, Varaxsha, Tuproq qal`a v.b. joylardan topilgan tasviriy san`at namunalari). Tasviriy san`atning turlari (rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik) va janrlari (manzara, turmush, natyurmort, portret, tarixiy, batal, animal, afsonaviy, marina ). Rangtasvir turlari-dastgohli rangtasvir, monumental rangtasvir, miniatyura rangtasviri. Rangtasvir texnikasi-freska, mozaika, vitraj.

2. Haykaltaroshlik turlari-dastgohli haykaltaroshlik, dekorativ haykaltaroshlik, monumental haykaltaroshlik; Rel`ef (barel`ef, gorel`ef ); yumaloq haykallar

3. Grafika turlari-dastgohli grafika, estamp, plakat, kitob grafikasi; gazeta- jurnal grafikasi; targ`ibot va tashviqot grafikasi; etiketka, upakovka, v.b.

4. Movarounnahr minatyura maktabi; Sharq minatyura maktablari; Yevropada Uyg`onish davri tasviriy san`ati; Jahonning hozirgi zamon ilg`or tasviriy san`ati; jahon tasviriy san`atidagi asosiy oqimlari; dunyoning eng yirik tasviriy san`at muzeylari; O`zbekistonning eng yirik tasviriy san`at

muzeyi. Jahonga mashur eng buyuk rassomlarning hayoti va ijodi (Kamoliddin Behzod, Leonardo da Vinchi, O`rol Tansiqboyev, Chingiz Axmarov v.b.).

**Naturaga qarqab rasm ishlash** mashg`ulotlari narsalarning tuzilishi, shakli, rangi, o`lchovlari, ularning xarakterli, tipik belgilarini bilish imkonini beradi. Shu orqali bolalarda kuzatuvchanlik, xotira, estetik did, obrazli tafakkur kabi eng muhim tasviriy malakalar shakllantiriladi va rivojlaniriladi. Ular tik, yotiq, og`ma, egri, to`lqinsimon chiziqlarni chizish, bo`yoqlar bilan tegishli yuzani bir me`yorda bo`yash, och tusdan to`q tusga va aksincha to`qdan ochga o`tish, o`quvchilar to`g`ri va egri chiziqlarni teng bo`laklarga bo`lish malakalarini o`zlashtiradilar. Chizilayotgan rasm mazmunidan kelib chiqqan holda qog`oz farmatini to`g`ri tanlashni hamda rasmni qog`ozda kompozitsion jihatdan to`g`ri joylashtirishni o`rganadilar. Shuningdek, rasmni bosqichlar asosida ishlashni o`zlashtiradilar.

Naturaga qarab rasm ishlash mashg`ulotlarida o`quvchilar, mo`yqalam, rangli qalamlar, akvarel, guash bo`yoqlari bilan ishlash yo`llarini o`rganadilar, imkoni bor joylarda ko`mir (ugol), sous, pastel, sangina kabi materiallar bilan ham ish olib boradilar.

Tasvirlash jarayonida naturani tahlil qilish, ularning qismlarini bir-biri bilan taqqoslash, umumlashtirish kabilar rasm ishlovchining e`tibor markazida bo`ladi. Bunda ayniqsa, chiziqlar ravonligi, ranglarning nafis va mutanosibligi, ifodalangan go`zalikni zehnlab tasvirlay olishga alohida e`tibor beriladi.

Boshlang`ich sinflarda ko`proq bolalarning tasviriy imkoniyatlariga moskeladigan bayroqcha, soat, havo shari, o`yinchoq mashinalar, ninachi, kapalak, tilla qo`ng`iz kabi hasharotlarni rasmini ishlash nihoyatda qo`l keladi. Bunday mashg`ulotlar uchun natura tanlashda o`qituvchi, ularning estetik ko`rinishiga, shakl, rang jihatidan bolalarda qiziqish uyg`otadigan bo`lishligiga o`z e`tiborini qaratadi.

**Kompozitsion** faoliyato`zmazmuniga ko`ra uch qismga bo`linadi:

1. Rangtasvir kompazitsiyasi. 2. Dekrativ kompazitsiya. 3. Haykalta-roshlik kompazitsiyasi.

Kompazitsion faoliyat o`quvchilarda badiiy-ijodiy qobiliyatni, o`z fikr va taassyrotlarni rasmda obrazli qilib tasvirlash hamda badiiy didni o`stirishni maqsad qilib qo`ydi.

**Rangtasvir kompazitsiyasi** mashg`ulotlari tevarak-atrofdan olingan ko`rinish va hodisalarni uning barcha janrlarida (manzara, turmush, natyurmort, tarixiy, animalistik, afsonaviy, marina) amaliy ishlar shaklida bajarishni nazarda tutadi. Bu amaliy ishlar bevosita yorug` soya, rangshunoslik, perspektiva yuzasidan olib boriladigan nazariy bilimlar bilan bog`liq holda analga oshiriladi. Bunday amaliy mashg`yotlarda bolalar naturani kuzatish, (qoralama, ranglama, uzoq davom etadigan rasm ishlash) xotiradan, tasviriy san`at asarlaridan olgan bilim va malakalarga tayangan holda ish olib boradilar. O`quvchilar tanlangan mavzuga ko`ra uning elementlarini qog`oz yuzasida bir-biriga bog`liq holda joylashtirish, yaxlit rangtasvir kompazitsiyani hosil qilish, mavzu mazmuniga mos keladigan rangtasvir kompazitsiyasni topish uchun bir xil xomaki ishlar, eskizlar ishlaydilar. Kompazitsiya tuzishda bolalar obrazlarning tipik belgilarini tanlab olib, qismlarning o`rnini almash-tirib, qo`shimcha detallar kiritish orqali kompazitsiya mazmunini boyitish kabilarga alohida e`tibor beradilar. Unda kompazitsiyaning bir butunligi, qismlarni, shakllarni, ranglarni xillashtirish va ular o`rtasidagi bog`lanish va kontrastlik, asardagi hamma vositalarning bosh g`oyaga bo`ysindirish kabi qonun qoidalar hisobga olinadi.

Rangtasvir kompazitsiyasi darslarida o`quvchilar bo`yoqlar bilan tasvir- lash, tasvirda asosiy bo`rtirib ko`rsatish, tasvirda uzoq-yaqinlikni ifodalashda perspektiva qoidalariga amal qilishni o`rganadilar.

**Dekrativ kompazitsiya** mashg`ulotlarida badiiy-bezak ishlarida foyda- laniladigan uo`lsimon, kvadrat, to`rt burchak, doira naqshlar, ochiq va yopiq naqshlar, namoyon naqsh namunalaridan ko`chirish va mustaqil ijodiy

ish- larni o`rganadilar. Bu ishlar bevosita buyum bezagi bilan bog`liq holda amalga oshiriladi.

Shuningdek, taklifnoma, tabriknomalar tayyorlash kabi amaliy ishlar ham bajariladi. Milliy va chet el xalqlarining liboslari uchun eskizlar tayyorlanadi, tabiiy shakllarni stilizatsiyalash yuzasidan mustaqil ishlar olib boriladi. Dekorativ kompazitsiya mashg`ulotlarida xalq ertaklari, hikoyalar, dostonlar, she`rlar mazmuniga eskizlar ishlash katta o`rinni egallaydi. Bunda bolalar kitoblarini ichki va tashqi (muqova) bezagiga doir (bosh bezak, yakuniy bezak, zarhal harf, illyustratsiya) ishlarni bajaradilar. Dekarativ ishlarda o`quvchilar buyumlarning vazifalari, ularning shakli, bezak elementlarining o`zaro bog`liqligi haqida elementar tushunchalriga ega bo`ladilar, hamda yuksak mahorat bilan tasvirlangan narsalarni didsiz, pala-partish ishlagan narsalardan farq qilishini o`rganadilar.

Dekorativ kompazitsiya darslarida bolalarga har qanday naqshlarning elementlari tevarak-atrofdagi narsa va hodisalardan olingan haqida tushuncha beriladi. Binobarin, naqsh ishlash mashg`ulotlarida rasm ishlovchi real shaklni o`zlashtirishi, uni soddalashtirishi, unga yangi elementlarni qo`shishi mumkinligini o`rganib oladi.

**Haykaltaroshlik kompazitsiyasi** mashg`ulotlarida odam, hayvon, qushlarning alahida haykallari, sport, hayvonot olami mavzularida, xalq ertaklari asosida tasviriy ijodiy ishlar bajariladi. Dekarativ haykaltaroshlik oquvchilarga turli dekarativ bezakli rel`eflar va o`yinchoq haykallar ishlash orqali maxsus bilim hamda malakalar hosil qiladi. O`zbek xalq kulolchilik san`ati an`analari asosida “Toychoq”, “Qo`zichoq”, “Bo`taloq” kabi o`yinchoq haykalchalar ishlanadi. Fantastik mavzularda, dev, ajdarho, kentavr, suv parisi, xumo qushi kabilarni dekarativ haykallari ijodiy tarzda bajariladi. Bunday mashg`ulotlarda bolalar stek bilan ishlash, loy yoki plastilinni dumaloqlash, bosib yapaloqlash, silliqdash, cho`zish usullarini o`rganadilar.

Haykaltaroshlik mashg`ulotlarida ikki xil ish uslubi mavjud bo`lib:

1. alohida-alohida loy yoki plastilin bo`laklarini bir-biriga yopishtirish orqali haykal ishlash bo`lsa;

2. yaxlit loy bo`lagiga stek bilan ishlov berish orqali haykal ishlashdir;

Bularni bolalar yakka yiki gruh bo`lib bajaradilar. Kompazitsiyalardagi obrazlar soniga qarab, gruhdagi bolalar soni kam yoki ko`p bo`lishi mumkin.

## **1.2. Tasviriy san`atda, qalam tasvir fanining tutgan o`rni va o`qitish jarayonida milliy istiqlol g`oyasi**

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar jamiyatimizni iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy jihatdan jahonning eng rivojlangan mamlakatlari qatoridan o'rin olishida ijobiy natijalar bermoqda. Respublika Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan "**Kadrlar tayyorlash milliy dasturi**" muhim tarixiy hujjat bo'lib, unda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish bu tizirhni dunyoning ilg'or, demokratik davlatlari darajasiga etkazish va yosh kadrlarni yuksak ma'naviy-axloqiy ruhda, chuqur bilim egasi qilib tarbiyalash maqsadi qo'yilgan.

Keyingi vaqtda boshqa sohalarda bo'lgani kabi, oliy ta'lim tizimida ham ko'pgina amaliy tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, pedagogika oliy o'quv yurtlarining badiiy grafika fakultetlarida yosh pedagog-rassomlarni tayyorlash bo'yicha Davlat ta'lim standartlari, yangi o'quv rejalari, dasturlari tuzilmoqda, o'quv qo'llanma, darslik va metodik tavsiyalar yaratilmoqda. Respublika oliy o'quv yurtlari va ilmiy tadqiqot institutlarida yoshlarga milliy san'at namunalarini o'qitishning ilmiy asoslangan yangi shakli, metodlari ishlab chiqihnoqda hamda yoshlarni badiiy va estetik jihatdan tarbiyalab, voyaga yetkazish borasida ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Yoshlarni barkamol yetuk qilib tarbiyalashda tasviriy san'at, xususan, qalamtasvir fani alohida ahamiyat kasb etadi. Bu esa, o'z navbatida, oliy o'quv yurtlarida o'qitilayotgan maxsus fanlarning chuqur va asosli bo'lishini taqozo etadi, pedagog, olim varassomlar zimmasiga yuksak mas'uliyat yuklaydi.

Qalamtasvir predmeti badiiy grafika fakultetlarida o'qitiladigan barcha maxsus fanlarning asosi hisoblanadi va ular o'rtasida bevosita bog'liqlikni

ta'minlaydi. Qalamtasvir borasida yetarli bilim va malakani egallamay turib, talaba kompozitsiya, rangtasvir, haykaltaroshlik, xalq amaliy san'ati va boshqa mutaxassislik fanlarini yuqori darajada o'zlashtira olmaydi.

Hozirgi vaqtda pedagogika universitetlari va institutlari badiiy grafika fakultetlarida qalamtasvir fanini o'qitishning nazariy va metodik asoslarini ishlab chiqish va ilmiy jihatdan asoslangan yangi yo'li, shakli, mazmuni hamda metodlarini takomillashtirish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Tasviriy san'at fanini davlat standartlari asosida o'qitishning istiqbol yo'llarini ishlab chiqish.

2. Tasviriy san'at ixtisosligi bo'yicha oliy o'quv yurtlarida mutaxassis rassom-pedagoglarni tayyorlovchi muassasalar ish faoliyatini ilmiy-uslubiy jihatdan tahlil etish.

3. Mahalliy manbalardan foydalanshni keng yo'lga qo'yish orqali talabalarining yuqori malakali, Vatanga sadoqatli, milliy hamda jahon xalqlari san'atini mukammal biladigan, o'tmish madaniyatimizni sevadigan mutaxassislar bo'lib yetishishlarini ta'minlash.

4. O'rta maxsus, kasb-hunar kollejlari uchun qalamtasvir fanini, nazariy va amaliy jihatdan yuksak darajada biladigan, zamonaviy axborot texnologiyalari bilan qurollangan pedagog kadrlarni tayyorlash.

### **Tasviriy san'atni o'qitilish jarayonida milliy istiqlool g'oyasi.**

Talabalar ongi va qalbiga milliy istiqlool g'oyasini singdirish muammosi ta'lim-tarbiya jarayonida samarali usul va vositalardan foydalanishni taqozo etadi. «Hozirgi murakkab sharoitda xalqimiz, avvalo, o'sib-unib kelayotgan yosh avlodimiz ongi va qalbida mafkuraviy immunitet hosil qilish muhim ahamiyatga ega. Bu ishni bamisoli yosh ni-holga mevali daraxt kurtagini payvand qiladigan usta bog'bondek noziklik va mehr bilan oqilona amalga oshirish lozim\*<sup>1</sup>.

Talabalar ongi va qalbiga milliy. istiqlool g'oyasini singdirish ta'lim muassasalaridagi ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdagi fanlarning vazifasi bo'lib qolmasdan, balki o'rta maxsus kasb-hunar kolleji barcha o'quv fanlarining vazifasi sanaladi. Bu

boradagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar keng ko'lamda olib borilib, ta'lim-tarbiya jarayonining barcha jabhalarida asosiy o'rinni egallashi lozim. Xususan, tasviriy san'atni o'qitilishida bu vazifa talabalarda Vatan tuyg'usini shakllantirish - Ona Vatanga, uning tabiatiga mehr-muhabbat uyg'otish; o'lkamiz boyliklarini asrab-avaylab, tabiatdagi o'simliklar va hayvonlarga nisbatan ongli va to'g'ri munosabatni tarkib toptirish, ularning ekologik madaniyatni yuksaltirishdan iborat.

«Hozirgi vaqtda eng muhim, eng dolzarb vazifamiz — jamiyatimiz a'zolarini, avvalambor, voyaga yetib kelayotgan yosh avlodni kamol toptirish, ularning qalbida milliy g'oya, milliy mafkura, o'z Vataniga mehr-sadoqat tuyg'usini uyg'otish, o'zligini anglash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan iboratdin.

O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyatining ishchi guruhi tomonidan tayyorlangan «milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushunchalar va tamoyillar» risolasida qayd etilgandek, milliy istiqlol mafkurasi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, milliy va umum-insoniy qadriyatlar, demokratiya tamoyillariga asoslanadi, xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma'naviyati, ustoz-shogird an`analari ajdodlarimizning tarixiy merosidan oziqlanadi. Shu sababdan barcha ta'lim muassasalari tayanch o'quv rejalariga o'quvchi-yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonini huquqiy demokratik jamiyat qurish tamoyillariga moslash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish o'quv kurslariga kiritilgan.

Tasviriy san'atni o'qitilish jarayonida talabalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash ham o'rganilayotgan mavzu mazmuniga qarab xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma'naviy boyliklari, ustoz va shogird an'analari, ajdodlarimizning tarixiy merosidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu o'rinda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nimalar kiradi, — degan savol tug'ilishi tabiiy. Milliy qadriyatlar har bir xalq, millat va elatlarning o'z tarixiy taraqqiyoti davomida yaratgan va yaratadigan barcha moddiy va ma'naviy boyliklari, urf-odatlarini,

<sup>1</sup> Milliy istiqlol g'oyasi: Asosiy tushunchalar va tamoyillar. Toshkent.: O'zbekiston. 2000 y.

marosimlari, bayramlari va millatning o'zligini belgilaydigan o'ziga xos tamoyillari yig'indisidan iboratdir. Bu o'ziga xoslik moddiy, ma'naviy, ijtimoiy, oilaviy hayot turmush tarzida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, xalq amaliy san'ati, xalq o'yinlari, rasm-rusumlari, urf-odatlar, marosimlari ham milliy qadriyatlarga kiradi. Tasviriy san'atni o'qitilishida talabalarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash uchun auditoriya, mustaqil ta'lim mashg'ulotlari hamda ma'naviy-ma'rifiy mavzusiga bog'liq holda mamlakatimiz-ning san'at ko'rgazmalar zali, muzeyi, galereyasiga ekskursiyalar, ulardan oqilona foydalanish borasida olib borilayotgan ishlar, respublikamizning iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ijtimoiy rivojlanish tamoyillari, tasviriy san'at rivojiga hissa qo'shgan rassomlarning badiiy meroslari, tasviriy va amaliy san'atga oid traktatlar, hikmatli hikoyalar, rivoyatlar, afsonalar va maqollardan foydalanish, Respublikamizdagi mavjud san'at muzeylarda saqlanayotgan noyob durdonalarni o'rganish, o'tkazilayotgan «san'at bayrami» kabi tadbirlarga milliy ruh kiritish tavsiya etiladi.

Umuminsoniy qadriyatlar butun insoniyat rivoji davomida insonlar tomonidan yaratilgan va bebaho mulk sanalgan moddiy va ma'naviy boyliklar, madaniy, ilmiy, falsafiy, axloqiy, estetik, huquqiy, siyosiy, badiiy, ekologik va boshqa qarashlar yig'indisi sanaladi.

Umuminsoniy qadriyatlar milliy qadriyatlar zaminida shakilanadi, ya'ni biror bir millatga mansub milliy qadriyatlar rivojlanib, yillar davomida takomillaslib, boshqa millat va elatlar tomonidan e'tirof etilib tan olinadi. Shu tariqa milliy qadriyatlar umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko'tariladi. Masalan, o'rta asrlardagi Sharq sivilizatsiyasi o'zbek xalqi uchun milliy qadriyat, jahon xalqlari uchun umuminsoniy qadriyat sanaladi.

Tasviriy san'atni o'qitilishida talabalarni umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda quyidagilarga e'tibor berish zarur:

- tasviriy san'atni paydo bo'lishi va rivojlanish tarixini o'rganish;
- Sharq mutaffakirlari va allomalarning xalq pedagogikasiga qo'shgan hissalarini yoritish;

- buyuk rassomlarimizning umumbashariy mulkka aylangan noyob asarlarini o'rganish;
- tasviriy san'at fanining rivojlanishiga hissa qo'shgan buyuk olimlar hayotining ibratli tomonlarini ko'rsatish.

Talabalarning qalbiga milliy istiqlol g'oyasini singdirish uchun o'qituvchi milliy mafkuraning asosiy g'oyalarini chuqur anglashi, olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda mazkur g'oyalarga asoslanishi va shu yuksak maqsadlarni amalga oshirishga safarbar etishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, talabalar qalbiga milliy istiqlol g'oyasini singdirishda tasviriy san'at mashg'ulotlari, ekskursiyalar, mustaqil ta'lim mashg'ulotlarni samarali tashkil etish, mavzu mazmuniga bog'liq holda ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, mustaqillik prinsiplari va Ona Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashga katta e'tibor berish lozim.

<sup>1</sup> A. Karimov. Hushyorlikka da'vat. Toshkent.: O'zbekiston. 1999, 16-bet.

## **II-BOB. Iqtisoslashgan maktablarda, qalam tasvir fanining ilmiy-metodik asoslarining tahliliy qismi.**

### **2.1.Qalam tasvir fanining ilmiy-metodik asoslari.**

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashda, qalamtasvir mashg'ulotlarining, amaliy jihatlarini o'rgatish bilan bir qatorda, uning nazariy asoslari ham puxta o'qitilishi katta ahamiyatga ega. Shuning uchun qalamtasvir mashg'ulotlari qator aniq predmetlar asosida olib boriladi. Ulardan asosiysi -perspektiva va plastik anatomiyadir. Bularsiz talaba eng oddiy vazifani ham to'g'ri bajarishi mushkul. Perspektiva qonuniyatlarini bilmay turib, u buyumning fazoviy holatini aniq topa olmaydi yoki odam plastik anatomiyasi borasida aniq bilimga ega bo'lmasdan, inson qomati va portretini chiza olmaydi. Yorug' va soya qonuniyatini yaxshi tushunib yetmagan talaba tasvirlanayotgan buyum tusi, hajmi va materiallik xususiyatlarini aniq tasvirlashning uddasidan chiqqa olmaydi.

Buyumlami tasvirlash san'ati, boshqa aniq fanlar kabi, fikrlab chizilayotgan narsani chuqur tahlil etib, uni so'z orqali emas, turli tasvirlash vositalari bilan, obrazli qilib yaratishni taqozo etadi.

Tasviriy san'at ustasi va rus pedagoglaridan biri P.P.Chistyakov aytganidek, tasvirlash - fikrlash demakdir. U shogirdlariga doimo bunday deb ta'kidlagan: "Hech qachon fikrlamay rasm chizmang, har doim oldingizga maqsad qo'ygan holda gapirib tasvirlang, bu yerdan-bu yergacha"<sup>1</sup>.

So'z – tasvirlanayotgan buyumni tahlil qilib, to'g'ri chizishda eng muhim jihatlardan biridir. U chizuvchida fikr yuritib tasvirlash odatini shakllantiradi.

Ma'lumki, tasviriy san'at atrof-muhitni keng va atroflicha o'rganish natijasida, aniq fanlar kabi, tabiatni ilmiy jihatdan tahlil etish orqali o'rganiladi. Shuning uchun bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi tabiatni qanchalik ko'p sevsa va kuzatib o'rgansa, u tasvirlash sohasida shunchalik yuksak natijalarga erishishi mumkin.

Uyg'onish davrining buyuk rassomlari tabiatni ilmiy tahlil qilib, uni asosli o'rganganlar va o'z asarlarida ishonarli tasvirlaganlar. Jumladan, Leonardo da Vinchi, Alberti va Dyurerlar inson tanasi a'zolarining har bir bo'lagini aniq

o'lchamlarda o'rganib, o'z tasvirlarida amalda qo'llaganlar (3-rasm). Ular inson qomati yoki portretini tasvirlashdan oldin uning tuzilish xususiyatlarini, xuddi anatom tadqiqotchidek, asosli o'rganganlar va natijada jahonga mashhur san'at asarlarini yaratganlar.


**O'quv qalamtasvirining ilmiy asoslariga rioya qilish** deganda; talabaning u yoki bu o'quv mashq jarayonida tasvirlashning qonun va qoidalarini aniq bajarishi nazarda tutiladi. Masalan: boshlang'ich kurslarda gipsli geometrik shakllarni chizishda talabadan chiziqli konstruktiv tuzilish hamda perspektiva qonun-qoidalariga amal qilish talab etiladi. Inson qomatini tasvirlashdan oldin esa (yuqori kurslarda), talabalar insonning anatomik tuzilishini o'rganishlari shart. Yuqori kurslarga borib, talabalarda o'ziga xos, individual tasvirlash texnik malaka rivojlana boshlaydi.


Ular har bir vazifani individual amalga oshirish bilan birga qalamtasvirdagi mavjud plastik anatomiya qonunlariga rioya qilishlari lozim (suyak va mushaklarning joylashishi, birlashishi, ularning nisbat va tuzilishlari, yorug', soya va boshqalar). Uzoq o'tmishda qadimgi yunon musavvirlari inson qomatini ilmiy tahlil etib, shunday xulosaga kelganlarki, inson qomati -tabiatning eng murakkab, oliy va go'zal mahsulidir. Bir qarashda biri-birga qarama-qarshi bo'ib tuyulgan, tasviriy san'at va ilm-fan amaliyotda biri ikkinchisini to'ldirib shakllantiradi.

Ong va sezgi, idrok va hissiyot doimo uzviy aloqadadir. Demak, talaba o'quv vazifasini to'g'ri bajarishi uchun, birinchi navbatda, tasviriy san'at qonun-qoidalarga amal qilishi kerak. Ular orqali u o'quv akademik vazifalarni bajarish jarayonida tasvirdagi birinchi darajali buyumlarni bo'rttirib ko'rsatib, shaklning xarakterli xususiyatlarini aniq tasvirlashi, ikkinchi darajali buyumlarni esa, umumiy, ko'zga tashlanmaydigan qilib bajarishi lozim. Tasviriy san'at xususan, o'quv qalamtasviri qonun-qoidalari, tabiat qonunlaridan kelib chiqadi. Tabiat qonunlari tasviriy san'atga ta'sir etib, uning rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Tasvirlash qonunlari talabaning qalamtasvir bilimini oshiradi va malakasini shakllantiradi, ijodiy qobiliyatini o'stiradi, hamda uni bo'lajak pedagogik faoliyatga puxta tayyorlaydi.

Buyumlarni o'ziga qarab, naturadan tasvirlash mashqlari tasviriy san'atning asosi hisoblanib, u talabadan yuqorida bayon etilgan, qonun-qoidalar asosida ish yuritishni talab etadi. Shu bois, talaba o'qishning dastlabki bosqichidanoq, rasm chizishning asosiy qonunlarini to'la-to'kis egallashi, hamda o'tmishdagi buyuk rassonilarning ijodini va tasvir texnikasini chuqur o'rganishi lozim.

Tasviriy san'at borliqdagi voqea-hodisalar, hamda buyumlarning nafaqat tashqi shaklini chizishni, balki ushbu narsa va buyumlarning ichki mohiyatini





chuqur tahlil etishni taqozo etadi. Bu borada buyuk fransuz rassomi va me'mori Le Korbyuze shunday degan edi: «Tasvirlash jarayonida buyumlarning

qanday dun- yoga kelishini, ularning qanday rivojlanishini, o'sishini, gullab-yashnashini ko'ra- san. Bu borliqni kuzatish, avvalo, buyumlarning «icki» dunyosini, so'ngra «tash- qarisini» o'rganish natijasida amalga oshiriladi. Buyumning haqiqiy go'zalligmi, avvalo, tashqarisiga e'tibor berib, so'ngra chizish davomida idrok etamiz. Tasvir- lash -kuzatish, yaratish, ixtiro qilish demakdir»

Tasvirlanayotgan buyum shakli qanchalik murakkab bo'lsa, chizuvchi uni shunchalik ko'p o'rganishi va tahlil etishi kerak. Qalamtasvirda ilmiy yondoshish, ayniqsa, buyumning chiziqli konstruktiv tuzilishi va perspektiv holatini aniqlashda katta ahamiyat kasb etadi.

Qalamtasvirda yetuk malakaga erishish, ko'p jihatdan narsani o'ziga qarab tasvirlashga bog'liq. Narsani o'ziga qarab tasvirlash mahorat rnaktabirii o'tmasdan badiiy rivojlanish pillapoyalaridan yuqoriga chiqish mumkin emas. Bir necha yetuk shogiidlar tarbiyalagan, rus rassomi va murabbiyi P.P.Chistyakov aytgani- dek, *“talaba ,avvalo, chizayotgan buyumni sinchiklab kuzatish izarur,so 'ngra u naturani o 'ziga "bo'ysundirishi" kerak. Rassom qanday yetuklikka erishmasin, u narsani o 'ziga qarab tasvirlashdan voz kechmasligi lozim”*.

Boshqacha qilib aytganda, rassomning xayoli uni o'rab turgan borliq bilan har doim bog'liq bo'lishi lozim. Ijodkor-rassom biron-bir san'at asari ustida ijod qilishidan oldin, eng avvalo, kuzatib, eslab qolgan borliq obrazlarini xayolan tiklab, tahlil qiladi, so'ngra ularni juda ko'p marta amaliy mashqlar bajarish orqali olgan bilim va tajribalari asosida tasvirlaydi.

O'quv qalamtasvirini ilmiy jihatdan tahlil etish natijasida, uning bir necha mustaqil asosiy fanlar bilan bevosita chambarchas bog'liqligini kuzatishimiz munikin:

**I. Perspektiva** - buyumning fazoviy holatini tekislikda to'g'ri tasvirlash metodlarini ochib beruvchi fan.

**II. Plastik anatomiya** - inson va hayvonlar tanasining tuzilishi haqidagi fan.

**III. Fizika** - buyumlarda yorug' va soyalarning taqsimlanishi borasidagi fan.

Ushbu fanlarni har bir talaba umuta'lim maktabida, so'ngra badiiy o'quv yurtida chuqur o'zlashtirgan bo'lishi, hamda ularni tasviriy faoliyatda keng qo'llay olishi zarur.

Yuqorida bayon etilganidek; Uyg'onish davri rassomlari o'zlarining mashhur san'at asarlarida sanab o'tilgan fanlardan unumli foydalanganlar. Buyumlarni haqqoniy tasvirlashda ushbu aniq fanlaniing ahamiyati nihoyatda katta. Biron-bir mashhur san'at asari yo'qki, unda perspektiva qonuniyatlariga amal qilinmagan bo'lsin. O'ziga qarab chizilgan suratni rassom qanday holatda (ro'paradan, yonidan, o'tirib, yoki tik turib) bajarganini aniq aytib berish mumkin.


O'tmishda yashab ijod etgan buyuk rassomlar ham, hozirgi zamonaviy rassomlar ham perspektivani birinchi o'ringa qo'yadilar. Tasviriy san'at fazoviy tasavvurimiz perspektiva qonuniga to'la amal qilishini talab etadi.

Buyumning fazoviy holatini to'g'ri tasvirlash uchun, perspektiva qonunlariga rioya qilishimiz shart. Mashhur rassomning ijodi shundan dalolat beradiki, borliqni haqqoniy tasvirlash uchun, tasviriy san'at qonun-qoidalariga rioya qilish g'oyat muhim. Leonardo da Vinchi o'zining, «Rangtasvir qonuniyatlari» nomli asarida shunday degan edi: «O'quvchi, avvalambor, perspektiva qonunlarini puxta bilishi lozim, so'ngra narsaning o'lchamlarini o'zlashtirishi kerak»


Buymlarning konstrktiv tuzilishini hamda ularning turli vaziyatlardagi perspektiv qisqarishlarini to'g'ri tasvirlash talabidan tinmay amaliy mashqlar bajari-shni talab etadi. Mashhur rassom murabbiylar, ijodiy faoliyati bilan bir qatorda; ko'plab maxsus rnetodik qo'llanmalar ishlab chiqqanlar. Jumladan, XIX asrning birinchi yarmida ijod etgan rus pedagoglaridan A.R.Sapojnikov buyumlarni tasvirlashda, **sinch (karkas)** usulini joriy etdi. Gipsdan ishlangan geometrik shakllarni tasvirlashda, u ma'lum shaklning yoniga shu shaklning simdan ishlangan nusxasini qo'yib, yosh rassomlarning chiziqli konstrktiv tuzilish, perspektiva qonun-qoidalarini osonlikcha o'rganishlariga yordam bergan. Sinch usuli yordamida tasvirlash turli geometrik hamda boshqa shakllarning, (kub, silindr, konus, prizma va b.) buyum tekisligidagi tayanch nuqtalarini, perspektiva asoslarini hamda fazoviy holatlarini aniqlashda katta yordam beradi. 4-rasm.

Boshlang'ich kurs dasturlarida gipsdan ishlangan turli geometrik shakllarni o'ziga qarab tasviriash vazifalari ko'rsatilgan.

Bunda talabalar kub, shar, prizma, konus, silindr, piramida, gips ko'za, turli naqsh va me'morlik bo'laklari ya hokazolarni o'ziga qarab lasviraydilar. Ushbu mashg'ulotlarning asosiy maqsadi - talabalarga kompozitsiya, chiziqli konstruktiv tuzilish, nisbatlar, perspektiva qonunlarini o'rgatish hamda ularda chizish malakasi shakllantirishdan iboratdir, Umum ta'lim maktablaridan, talabalikka qabul qilingan yoshlarning aksariyati, ushbu vazifalarni osongina bajarish miunkin




deb o'ylaydilar. Ular u yoki bu vazifani bajarishda qo'yiladigan talablarni tushungandek bo'lsalarda, yetarli malaka va ko'nikmaga ega bo'lmagani, hamda ushbu vazifani ishlashda asos hisoblangan qonun-qoidalarni bilmasligi oqibatida, qiyinchilikka uchraydilar. Masalan, ufq chizig'idan pastda joylashgan kub shaklini tasviriash vazifasini olaylik. 5-a,b rasmda talaba kubni tasvirlashda perspektiva qonunida va chiziqli konstruktiv qurilish asoslarida xatoga yo'l qo'ygan. Xuddi shu vazifaning, boshqa nuqtadan to'g'ri bajarilgan namunasi quyidagi, 5-b rasmda berilgan. Bunda talaba tasvirlashning barcha qonunlariga asoslangan, kubning perspektiv qisqarishini va uching konstruktiv tuzilishini sinch usulida to'g'ri bajargan. 5-a,b rasmlar.



Geometrik shakllarning rasmini chizishda, ularning buyum tekisligida joylashgan asoslarini chiziqli perspektiva qonuniga asosan bajarish muhim. Buning uchun, chizuvchi buyumlarning perspektiv qisqarish qonunlari bilan bir qatorda, ufq chizig'ini to'g'ri aniqlashi, hamda uning yordamida, turli shakllarning buyum tekisligida o'zaro joylashgan holatlarini, haqqoniy tasyirlashi mumkin.

Ma'lumki, har bir buyum, u qanday shaklga ega bo'lishidan qat'iy nazar, perspektiva qonunlariga asosan qisqarishi mumkin. Lekin ko'p hollarda talabalar bu nazariyaga e'tibor bermaydilar. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, talaba aylana shaklli buyumlarni tasvirlashda, uning fazoviy holatini to'g'ri topa olmaydi va buyumning perspektivaga asosan qisqarishida qo'pol xatoga yo'l qo'yadi. 6- a,b rasmda ufq chizig'idan yuqorida joylashgan, oddiy ko'zani tasvirlashda talaba yo'l qo'ygan xato-kamchiliklar va shu vazifaning yuqorida bayon etilgan qonunlar asosida to'g'ri bajarilgan namunasi ko'rsatilgan. Ushbu misoldan ko'rinib turibdiki, talaba ko'zaning aylana sirtlarining /asosi, ekvatori, bo'yini, og'zi/ ufq chizig'iga asosan perspektiv qisqarishini to'g'ri tasvirlay olmagan. Natijada ko'zaning buyum tekisligida joylashuvi, soxta chiqqan, fazoviy holati haqida, hajmi aniqlanmagan. 6-rasmda ko'zaning chiziqli konstruktiv tuzilishi, ko'zadagi aylana sirtlarining ufq chizig'idan pastda, buyum tekisligiga tomon uzoqlashgan sari ularning perspektiv holati, asta-sekin qisqara borishi natijasida, ko'zaning tekislikdagi fazoviy holati va hajmi aniq tasyirlangan.



Yuqorida keltirilgan misollardan ko'rinadiki, yoshlar u yoki bu buyumni tasvirlashdan avval, uning shakli qanday – sodda, yoki murakkab tuzilgan bo'lishidan qat'iy nazar, buyumni sinchiklab kuzatishlari va uning ko'rinar-ko'rinmas tomonlarini ham tasavvur qilishlari shart. Ko'pincha usta rassom va muallimlar buyumni, kuzatib o'rganish natijasida, uning kompozitsion jihatdan to'g'ri joylashgan, chiziqli konstruktiv qurilgan holatini xayolan tasavvur etishni, so'ngra shu kuzatish orqali ishga kirishishni maslahat beradilar. Bunday usul chizuvchining fazoviy tasavvurini shakllantiribgina qolmay, buyum tasviri to'laqonli bo'lishiga ham katta yordam beradi.

Yoshlar tasviriy san'atning, perspektiva qonunlarini o'qish, davrining hamma bosqichlarida qo'llay bilishlari zarur. Ular bu qonunlarni turli oddiy buyumlarni chizganda ham, tabiatning eng murakkab mahsuli bo'lgan, inson qomatining turli holatlardagi ko'rimshini tasyirlashda ham qo'llashlari lozim.


Inson portreti yoki tanasini tasvirlashda talaba, dastlabki kurslarda geometrik shakllarni chizish davrida olgan bilim va malakasiga asoslanishi muhimdir. Chunki tabiatdagi barcha narsalarning asosida geometrik shakllar yotadi. Geometrik shakl-

tekisliklar asosida tasyirlashga, jumladan, inson qomatini chizish va konstruktiv tahlil qilishga, Uyg'onish davri rangtasvir, qalamtasvir ustasi, va naykaltaroshi Albrext Dyurer va Shonlar asos solganlar. 7-rasm.

Buyuk nemis rassomi, A.Dyurer tasviriy san'atni o'qitish metodikasi borasida, ko'plab ilmiy - amaliy ko'rsatmalar qoldirgan. Ijodiy faoliyatda u nafaqat his-tuyg'u va kuzatishlarga, balki aniq ilmiy bilimga asoslanishni oldinga qo'yadi. "Tasviriy san'atda ilmiy asoslar, -deb ta'kidlaydi Dyurer, - rassomning muvofaqiyatini belgilaydi".

Inson a'zolari va qomatini perspektiva jihatdan to'g'ri tasvirlashda u oddiy geometrik shakllardan foydalanish usulini ishlab chiqqan. Bu usul qalamtasvir bajarishda katta malakaga ega rassomdan tortib, badiiy ijodga endigina qadam qo'yayotgan o'quvchiga ham katta yordam beradi. Chizuvchi turli shaklli geometrik sirtlar orqali murakkab tuyulgan vazifani ham bajara olishi mumkin. Masalan, inson boshini chizishda, uning shaklini katta-katta geometrik bo'laklar asosida tasavvur etishi va uni xuddi haykaltarosh singari kesib ishlashi muhim ahamiyat kasb etadi. 8-rasm.


Uyg'onish davri rassomlari, o'zlarining ihsiy kuzatishlarini tasviriy amaliyotda keng qo'llaganlar. Ular plastik anatomiya, perspektiva, yorug'-soya qonuniyatlari borasida chuqur bilimga ega bo'lganlar va o'zlarining buyuk asarlarini yaratib, Uyg'onish davri san'atini yuqori cho'qqilarga olib chiqqanlar. Yosh rassomlarning qalamtasvir borasida puxta bilim olishlariida perspektiva qonuni asoslari, plastik anatomiya kabilar bilan bir qatorda, tasviriy san'atda yorug'-soya qonuniyatlarini o'rgatish ham katta ahamiyatga ega. Buyumlarning chiziqli konstruktiv tuzilishini aniq bajargandan so'ng, lining qanday- materiallardan tuzilganligi, bir-biriga tus jihatdan nisbatlari, fazoviy holati va hajmini to'g'ri topishda yorug'-soyalarning ahamiyati muhim. Tabiatdagi mavjud buyum va narsalar turli hajmga ega. Biz ulairga yorug'lik tushishi natijasida hosil bo'ladigan o'zgarishlar orqali buyum qanday hajmga ega ekanlighii tasavvur qilamiz.



Ma'lumki, yorug'lik tabiiy /quyosh va oy/ yoki sun'iy /elektr va alanga shu'lasi/ bo'ladi. 9,10-rasmlar. Quyoshning nurlari Yerdagi barcha narsa va buyumlarga sochilib tushadi /asosan sferik shakllarda/ va buyumda yorug' va soyalar tarqoq, nisbatan noaniq ko'rinadi. Narsani o'ziga qarab tasvirlashda sun'iy yorug'lik manbalaridan foydalanish buyumlarning hajmi va shaklini to'g'ri chizishda muhimdir.

Talabalar shuni yodda tutishlari kerakki, qalamtasvirning o'ziga xos ilmiy jihatlarini mukammal o'zlashtirish ularning keyingi ijodiy faoliyatida katta ahamiyat kasb etadi.


Qalamtasvir mashg'ulotlarida buyumlarning hajmini to'g'ri va haqqoniy tasvirlash, oddiy qalamda amalga oshiriladi. Rangtasvirdan farqli o'laroq, bu vazifa ancha mushkul bo'lib, talabalardan qalamtasvir borasida ko'plab amaliy mashqlar bajarishni talab etadi. Shuning uchun, talabalar turli hajm va shaklga ega buyumlar ning yorug' va soyalarini tasvirlayotganda buyumlarning hajmi va shakli



asosida ish yuritishi taqozo etiladi. Bunda talaba buyumga tushayotgan yorug', soya, yarim soyalarni, yengil chiziqlar bilan bir tekisda chizishga va chiziqiar tortishda ularni dona-dona bajarishga e'tibor berishi kerak. Buyumga yorug'lik qanchalik tik tushsa, uning tasviri shunchalik yaqqol ko'rinadi. Aksincha, chetdan tushayotgan yorug'lik buyumga umumiy tarzda urilib, bajarilayotgan tasvir xiraroq bo'lishiga olib keladi. Yorug'lik bir buyumdan urilib (sinib), ikkinchisiga va uchinchisiga tiishishi mumkin. Bu hol tasvirlanayotgan buyumlardagi yorug' va soyalar majmuasini tashkil etadi. Ular quyidagilardan iborat: a). yorug`lik; b). soya; s). yarim soya; d). aks; e). yaltiroqlik.

**Yorug`lik**- quyosh yoki sun'iy yoritgichning buyum yuzasiga tik tushuvchi nuridir.

**Soya** - buyumlarning yoritilgan qismining orqa tomoni (teskarisi), yorug'lik nurlari tushmagan yeri.



Bunday soyalar **shaxsiy soya** deb ham yuritiladi. Tasvirlashda tushuvchi soyalar ham kuzatiladi. Ushbu soyalar buyumlarning biri ikkinchisini to'sishi natijasida hosil bo'ladi.


Bunday soyalar buyum tekisligiga, (stol, pol, yer va hokazo) hamda buyumlarning biridan ikkinchisiga ham tushishi mumkin. Buyumga qiyaroq tushuvchi yorug'lik, ularda **yarim soyalarni** tashkil etadi. Yarim soyalar, asosan, yorug'lik va shaxsiy soyalar oralig'idagi qismda joylashadi. Shuning-uchun soyalar bir xil to'q tusda bo'lmaydi. Buyumlarning hajmlarini soya va yarim soyalar orqaligina to'g'ri

tasvirlash mumkin. Buyumlarga urilish natijasida qaytib, boshqasiga tushuvchi yorug'liklar **aks yorug'likni** hosil qiladi.

Aks yorug'lik predmetlarning bir-biridan qanday masofada joylashganiga ko'ra kuchli yoki kuchsiz bo'lishi mumkin. Lekin hech qachon aks yorug'lik buyumlarga tik tushuvchi yorug'likka nisbatan koichli bo'lmaydi. Buyumga yorug'likning tik tushishi natijasida esa **yaltiroqlik** hosil bo'ladi. Bu holat shisha, chinni, temir, sopol va yorug'likni qaytarish xususiyatiga ega bo'lgan boshqa ko'pgina buyumlarda kuzatiladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, o'quv qalamtasvirida yorug' va soyalar qalamda yengil chiziqlar (shtrix) bilan amalga oshiriladi. Yorug' va yarim soyalarda chiziqlar tasvirlanayotgan buyumning xarakteri va yorug'likning tushish yo'nalishi bo'yicha dona-dona, aniq bo'lishi kerak. Bunday ishlangan tuslar buyumlarning konstruktiv a yaqqol ko'rsatadi. Aksincha, buyumning soya qismlarida chiziqlar quyuroq, bir-biriga yaqin (birlashib ketgan) bo'lishi kerak.

Geometrik shakllarni tasvirlashda ularning tuslariga e'tibor berish darkor. Oldingi qatordagi buyumlar aniq chiziqlar bilan chizilsa, 2- va 3- qatordagi buyumlar chizuvchidan uzoqroqda joylashganligi hisobiga umumiy tarzda tasvirlanadi. Bu, o'z navbatida, buyumni haqqoniy (fazoyiy perspektiva qonuniga asosan) tasvirlashda g'oyat muhimdir.. Aksincha, buyumning soya qismlarida chiziqlar quyuroq, tuzilishini yanada yaqqol ko'rsatadi bir-biriga yaqin (birlashib ketgan) bo'lishi kerak.



11-rasm. 1-yorug'lik. 2-yaltiroqlik. 3-yarim soya. 4-shaxsiy soya. 5-refleks. 6-tushuvchi soya.


Geometrik shakllarni tasvirlashda ularning tuslariga e'tibor berish darkor. Oldingi qatordagi buyumlar aniq chiziqlar bilan chizilsa, 2- va 3- qatordagi buyumlar chizuvchidan uzoqroqda joylashganligi hisobiga umumiy tarzda tasvirlanadi. Bu, o'z navbatida, buyumni haqqoniy (fazoyiy perspektiva qonuniga asosan) tasvirlashda g'oyat muhimdir.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, buyumning hajmi asosida ishlash - buyumni to'laqonli hajmli tasvirlash omilidir. Pala-partish, duch kelgan tomonga chiziqlar tortish qo'yilgan maqsadga erishishga to'sqinlik qiladi. 12,13, 14-rasmlar.

Buyumlarning hajmini chizishda chiziqlarni tortish ketma-ketligiga rioya qilish kerak. Qalamni qog'oz sirtida bir xil kuch bilan bosganda chiziqlar orasidagi masofalarning teng bo'lishiga e'tibor berish - buyumni to'g'ri chizishda katta ahamiyatga ega. Dumaloq (sferik) hajmga ega bo'lgan buyumlarni chizishda chiziq tortish ellips shaklida bajariladi. 15- rasm.

Yorug'-soya qonu-niyatlari tasvirlashchda aniqlikni talab etadi. Fizik olimlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, yorug'lik buyum va narsalarga ma'lum hajmlar qonuniyati asosida tushadi. Talaba quyidagilarni doimo o'z tasviriy faoli-

yatida bilishi va qo'llashi lozim: a). yorug'lik manbaiga yaqin turgan buyumda yorug' va soyalar har doim kuchlidir; aksincha, buyum yorug'lik manбайдan uzoqlashgan sari, soya - yorug' kuchlari ham umumiy lashib, xira ko'rinadi. Buyumlar tasvirda aniq bo'lishi uchun yorug'lik manbaiga yaqin turganlarini keskin yorug' soyalar orqali bajarish, uzoqda joylashgan buyumlarni esa umumiy tarzda chizish



tavsiya etiladi;

b) buyumning turni to'sishi natijasida u yoki bu tekislikka tushuvchi soya har doim shu buyumning o'z soyasiga nisbatan kuchliroq bo'ladi. Shuning uchun tus jihatdan to'q bo'lgan buyumni yorug'likning to'silishi natijasida tushuvchi soya bilan solishtirish va tushuvchi soyani to'qroq tasvirlash kerak.


Yuqoridagilardan ko'rinib turibdi, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi tasvirlashning texnik jihatlari bilan bir qatorda, uning nazariy tomonlariga ham e'tibor berishi lozim.

O'tmishda usta rassomlar tabiatdagi yorug'-soya qonuniyatini izchil kuzatganlar va o'zlarining amaliy ishlarida muvafaqqiyat bilan qo'llay bilganlar. Jumladan, Leonardo da Vinchi shunday deydi: «To'q tusli buyumda hosil bo'luvchi aks yorug'lik doimo ochroq tusdagiga nisbatan aniq va yaqqol ko'rinadi».

Ba'zi tasviriy san'at amaliyotchilarining fikricha, tasviriy faoliyatdagi ilmiy asoslar talabaning ijodiy yo'nalishiga to'sqinlik qilar va salbiy ta'sir ko'rsatar emish. Ularning ta'kidlashicha, agar talaba tasvirlashning ilmiy jihatlari asosida ma'lum vazifani bajarsa, tasvir ham bir xil darajada bo'lar ekan. Ushbu tushuncha noto'g'ri

ekanligini quyidagi misolda ko'rsatib o'taylik. Talabalar natyurmort qalamtasvirini boshlang'ich bosqichidan to oxirigacha pedagog nazoratida, uning bevosita ko'rsatmalari orqali bajarsalar ham, vazifa tugal holatga kelganda har bir ish chi - zish uslubi va emotsional jihatlari bilan bir-biridan keskin farq qiladi.

Ko'p yillik kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, qalamtasvir mashg'ulotlarini o'tishda ayrim pedagoglar qalamtasvirning ilmiy asoslariga, perspektiva qonunlariga, plastik anatomiya va yorug`-soylar nazariyasiga yetarli e'tibor bermaydilar. Oqibatda talabalar ushbu qonun-qoidalardan bexabar qoladilar va amaliy vazifalar puxta bajarilmaydi.



Oliy o'quv yurti o'qituvchisining asosiy vazifasi - talabalarga mutaxassislik fanlari: rangtasvir, haykaltaroshlik, xalq amaliy san'ati va aynigsa, qalamtasvir borasida amaliy hamda nazariy bilim berib, umumta'lim maktablari uchun yuqori malakali mutaxassis o'qituvchilar tayyorlashdir.

Yuqorida bayon etilgan fikrlardan xulosa shuki, talabalarga boshlang'ich kurslardan boshlab rangtasvir, kompozitsiya, haykaltaroshlik kabi mutaxassislik fanlarining asosi bo'lgan boshlang'ich o'quv qalamtasviri mashg'ulotlari ham amaliy, ham ilmiy-nazariy jihatdan yaxshi o'qitilishi shart.

O'tmish tarixdan aniq ma'lumki, qadimda buyuk rassomlar tasvirlashning ilmiy asoslarini qo'llash natijasida, katta yutuqlarga erishganlar. Florensiya maktabi rassomlari, tasviriy san'atni ilm qatoriga qo'yganlar va natijada, bu yerdan buyuk tasviriy san'at ustalari yetishib chiqqan.

Buyumlarni o'ziga qarab tasvirlash - tasviriy faoliyatning alifbosidir. Bu umumta'lim maktabi boshlang'ich sinflari o'quvchilaridan tortib, to oliy o'quv yurtlari talabalarigacha dasturilamal bo'lishi kerak. Yoshlar narsani o'ziga qarab chizish davomida tabiatdagi voqea-hodisalar, shakllarning konstruktiv tuzilishlarini tasvirlash qonun-qoidalarini o'rganadilar. Bularni talabalarga o'qitishda didaktiv prinsiplarning asosiysi hisoblangan - ilmiylik prinsipi yetakchi o`rin egallashi lozim.


## **2.2.Tasviriy san`at ustalarining qalamtasvir haqidagi fikrlari va qalam tasvir lavhalari.**

Qalamtasvir- barcha tasviriy san'at turlarining asosi hisoblanadi Rassom tasviriy san'at turining qaysi birida ijod qilishidan qat'iy nazar, qalamtasvirga asoslanadi. U o'zining kuzatishlari, katta asar kompozitsiyalari ustidagi izlanishlarini avval qalamda dastlabki chizgilar bilan ifodalaydi. San'at asarini yaratishda ushbu qoramalar rassomga yordamchi manba bo'lib xizmat qiladi.

Rassom u yoki bu kartinasini yaratishni qalamda chizishdan boshlaydi. Keyin asarga ranglar beriladi va u tomoshabinlarga estetik huzur baxsh etadi. Boshqacha qilib aytganda, qalamtasvirsiz hech bir rassom o'z asarini yetuk holga keltira ohnaydi.

Qalamtasvir mustaqil ravishda tugallangan san'at asari ham bo'lishi mumkin. Tush, sangina, pastel, sous, qalamda yaratilgan ko'plab kartinalar jahonning turli san'at muzeyi va ko'rgazmalaridan joy olgan.

Qalamtasvir mashg'ulotlari ko'rib-kuzatib to'g'ri tasvirlash, borliqni idrok etish, qo'l, ong va sezgi organlarini rivojlantirishda nafaqat bo'lajak rassomga, balki turli kasb sohasidagi kishilarga ham zarurdir.



Uyg'onish davrining buyuk rassomi va olimi **Leonardo da Vinchi** "**Rangtasvir qonunlari**" nomli asarida ta'kidlaganidek, *yoshlar o'zlarini ilm-fan, tasviriy san'atda sinamoqchi bo'lsalar, avvalo, rasm chizishni mukammal bilmoqlari lozim.*

Qalamtasvir bakalavriat talabalarining, I-IV kurslarda nazariy va amaliy mashg'ulotlar orqali o'rgatiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, amaliy mashg'ulotlar bilan bir qatorda talabalarga nazariy bilim berish g'oyat muhim. Bu bilim bo'lajak pedagoglarning institutni tugatgandan so'nggi ilmiy va ijodiy faoliyatlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Borliqdagi narsa va shakllarni realistik tasvirlash talabaga amaliy bilim va ko'nikma beribgina qolmay, balki uning estetik didini o'stirish, dunyoqarashini kengaytirish uchun juda muhimdir. Realistik tasvir san'ati yosh rassomlarning borliqni haqqoniy obrazlarda ifoda etish mahoratini rivojlantirishda ham katta ahamiyatga ega.

Rasm chizish asoslarini o'rganish narsaning o'ziga qarab, metodik izchillikda tasvirlash prinsipiga asoslanadi. Tabiatga muhabbat va o'ta kuzatuvchanlik,

buyumlarni to'g'ri tasvirlash kabi fazilatlar tasviriy san'at bilan shug'ullanadigan har bir talabaga xos bo'lmog'i kerak.


Bo'lajak pedagog-iassomlarni buyuk rassomlar, tasviriy san'at sohasida ko'plab nazariy, amaliy bilimlarni meros qilib qoldirgan shaxslar hayoti va ijodiy faoliyati, bilan tanishtirish, ularning asarlarini chuqur o'rgatish hamda ulardan nusxalar olishga jalb etish katta ahamiyatga ega. 1-rasm. Qalamtasvir mashg'ulotlari bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilariga quyidagi eng asosiy qonunlarni o'rgatishni maqsad qilib qo'yadi:

1. Tasviriy san'atda kompozitsiya asoslari.
2. Shakllarning chiziqli konstruktiv tuzilishi.
3. Buyumlarning o'zaro nisbatlari.
4. Tasviriy san'atda perspektiva qonunlari.
5. Shakllarda yorug' va soya qonuniyatlari.
6. Tasvini metodik ketma-ketlikda **analiz va sintez** qilib to'g'ri bajarish.

#### QALAM TASVIR VOSITALARI

Qalamtasvir ishlash uchun maxsus ish qurollari zarur. Barcha kurslarda talabaning amaliy mashg'ulotlar bajarishida, ular zaruriy ashyolar hisoblanadi. Ular quyidagilar: **qog'oz**, qattiqligi va yumshoqligi turlicha bo'lgan turli **grafik qalamlar**, **guash** va **akvarel bo'yoqlar**, **yumshoq** va **yassi** shakldagi **mo'yqalam**, **o'chirg'ich**, **rasm taxtasi (planshet)** va **molbert**.

Rasm chizishda **qog'oz** asosiy material hisoblanadi. Qog'oz, albatta, oppoq, yetarli darajada qalin va pishiq bo'lishi kerak. Ulardan eng yaxshisi - "vatman" deb nomlanuvchi qog'ozdir. Akvarel bo'yog'ida ishlash uchun vatman qalin vayuzasi g'adir-budur bo'lishi kerak, agar yupqa bo'lsa, u suvni tez shimib olib, ivib ketadi, natijada bo'yoq yoyilib ketadi. Shu bilan birga "yarim vatman" qog'ozini ham qo'llash mumkin. Hozirgi kunda ko'plab qog'oz turlari mavjud. Qog'oz kashf etilgunga qadar odamlar yaproqlar, g'ishtlar va g'or devorlari, toshlarga rasm chizishgan. Qadimgi Misrda papirus yaproqlariga chizishgan. Qadimgi Pergam davlatida hayvon terisi qog'oz o'rnini bosgan. U "pergament" deyilgan. Lekin bunday "qog'oz"lar juda ham qimmat bo'lgan, chunki bitta kitob uchun kamida bir



necha yuz mol terisi ishlatilgan.

Qog'oz II asrda xitoyliklar tomonidan kashf etilgan. Bu qog'oz matoning mayda bo'laklaridan tayyorlangan. Hozirda esa qog'oz maxsus qog'oz fabrikalarida ishlab chiqariladi.


**Oddiy qora qalam.** Hozirgi kunda oddiy qora qalamning juda ko'pturlari mavjud. O'rtacha yumshoq qalamlardan tortib, juda qattiq qalam turlari mavjud. Bular; "T", "2T", "N", "2N", "M", "2M", "3M" yoki V, T, 2T, M, 2M, N, 2N, NV, V, 2V va boshqalar. Tarixga nazar tashlasak, ibtidoiy davrda odamlar g'orlarga, tog'-u toshlarga turli tasvirlar chizganini ko'rish mumkin. Ular biron-bir uchli, qattiqroq narsa bilan g'or devorlarini tirnab, turli shakllarni yasashgan.

Taraqqiyot tufayli rasm chizish asbob-uskupalari ham takomillashib bordi. Oddiy qora qalam ham shular jumlasidan. XVI asrda Angliyada grafit konidan topilgan tayoqchalarda rasm chizib ko'rishgan, shunda ular qog'oz yuzasida juda nafis va chiroyli chiziqlar tushira olish xususiyatiga ega ekanligi ma'lum bo'lgan. Oddiy qora qalam XVII asrning oxirida fransuz olimi N.Kante tomonidan kashf etilgan. "T" harfi bilan belgilangan qalamlar "Твёрдый"- qattiq degan ma'noni anglatadi. Odatda gips buyumlarga rasm chizishda qattiq qalam qo'llaniladi. "M" belgisi "Мягкий"- yumshoq degan ma'noni bildiradi va undan ko'proq xomaki chizmalar yoki kompozitsiya eskizlari tayyorlashda foydalaniladi.

**Ko'mir tayoqchalar.** Ko'mir tayoqchalari xomaki tasvir chizishda ko'proq ishlatiladi. Ko'mir tayoqchalarini uy sharoitida ham tayyorlash bo'ladi. Ko'mir

tayoqchalarini tayyorlashning oddiy usuli quyidagicha: buning uchun tok yoki atirgulning qizarib, yaxshi pishgan novdasidan 5-10 tasi bo'yiga 10-12 santimetr (diametri 8-9 millimetr) qilib kesib olinadi. Biron mahsulotdan bo'shagan temir idish(banka)ni olib, ichini yaxshilab tozalab, quritib qo'yamiz. Bu idish ichiga tok novdalarini tik holatda joylab, idishni qum bilan to'lg'azamiz. Og'zini loy bilan qalinroq qilib suvab, kichikroq bir teshikcha qoldirish shart. Keyin tandir yoki o'choq oloviga qo'yib, qizdiramiz. Gho'qqa bo'y harohar ko'mib qo'ysak ham bo'ladi. Temir idish qizishi davomida qoldirilgan teshikchadan olovsimon ko'kish tutun chiqa boshlaydi. Ko'kish tutun tugashi bilan idishni olovdan (cho'g'dan) olish kerak. Tayyorlangan ko'mir qalamcha bilan qog'oz yuzasiga tasvir tushirish mumkin. Tasvir o'chib ketmasligi uchun ozgina shakar eritilib, qog'ozdagi tasvir ustiga yengil purkaladi. Shu narsani unutmaslik kerakki, tok qalamchalari juda zich

***Ko'mir tayoqchalar.*** Ko'mir tayoqchalari xomaki tasvir chizishda ko'proq ishlatiladi. Ko'mir tayoqchalarini uy sharoitida ham tayyorlasa bo'ladi. Ko'mir tayoqchalarini tayyorlashning oddiy usuli quyidagicha: buning uchun tok yoki atirgulning qizarib, yaxshi pishgan novdasidan 5-10 tasi bo'yiga 10-12 santimetr (diametri 8-9 millimetr) qilib kesib olinadi. Biron mahsulotdan bo'shagan temir idish(banka)ni olib, ichini yaxshilab tozalab, quritib qo'yamiz. Bu idish ichiga tok novdalarini tik holatda joylab, idishni qum bilan to'lg'azamiz. Og'zini loy bilan qalinroq qilib suvab, kichikroq bir teshikcha qoldirish shart. Keyin tandir yoki o'choq oloviga qo'yib, qizdiramiz. Gho'qqa bo'y harohar ko'mib qo'ysak ham bo'ladi. Temir idish qizishi davomida qoldirilgan teshikchadan olovsimon ko'kish tutun chiqa boshlaydi. Ko'kish tutun tugashi bilan idishni olovdan (cho'g'dan) olish kerak. Tayyorlangan ko'mir qalamcha bilan qog'oz yuzasiga tasvir tushirish mumkin. Tasvir o'chib ketmasligi uchun ozgina shakar eritilib, qog'ozdagi tasvir ustiga yengil purkaladi. Shu narsani unutmaslik kerakki, tok qalamchalari juda zich



Ular- ning hammasini bir-biriga zich qilib bog'lab qo'ysa ham bo'ladi. Ota-bobolarimiz bunday Ko'kish tutun tugashi bilan idishni olovdan (cho'g'dan) olish kerak.

Tayyorlangan ko'mir qalamcha bilan qog'oz yuzasiga tasvir tushirish mumkin. Tasvir o'chib ketmasligi uch- un ozgina shakar eritilib, qog'ozdagi tasvir ustiga yengil purkaladi. Shu nar- sani unutmash kerakki, tok qalamcha- lari juda zich holdajoylashishi kerak. Ularning hammasini bir-biriga zich qilib bog'lab qo'ysa ham bo'ladi. Ota-bobolarimiz bunday qalamchalardan kulolchilik ishlarida foydalanishgan. Rossiyada esa oq qayin daraxtining shoxchalaridan foydalanishadi. Zavod- larda esa 3000° issiqlikdagi havosiz joyda 3 soatdan 5 soatgacha qizdirish orqali ko'mir qalamchalari tayyor lanadi.

**Akvarel bo'yog'i-** suvda osongina eriydi. Uning tarkibida bo'yoq moddasi (o'simlik yoki minerallarning mayih qilib yanchilgan kukuni) va bog'lovchi modda-olcha yelimi, glitserin va ozroq asal bo'ladi. Akvarel bo'yog'i nafisligi va rangining tiniqligi, yorqinligi, uyg'un ko'rinishi bilan ajralib turadi, hatto, bir rangning ustidan ikkinchisi surilganda ham avvalgi rang sezilib turadi va qo'shilish natijasida yangi rang hosil bo'ladi.

**Guash bo'yoqlari-**ham suvda yaxshi eriydi, ammo u akvarel bo'yog'i singari tiniq emas. Guash bo'yoqlari ishlatilganda (bir rangning ustidan boshqasi berilganda) avvalgi surtil gan rang butunlay ko'rinmaydi. Gu ash bo'yog'i tez quriydi, ammo qu- yoshda ko'proq tursa, uning rangi xiralashib qoladi.

**Mo'yqalam.** Bo'yash uchun mayin mo'ynali, yumaloq shakldagi mo'yqalamlardan foydalanish kerak. Ular yumaloq va yassi shaklda bo'lib, olmaxon, bo'rsiq, suvsar, quyon, tuya kabi hayvonlarning mo'ynalaridan tayyorlanadi. Sifatli mo'yqalam ho'llanganda qillari bir joyga yig'ilib, konussimon holatga keladi. Yumaloq mo'yqalam, akvarel bo'yog'ida foydalanniladi, yassi shakldagisi esa guash bilan ishlashda qo'llaniladi.

**O'chirg'ich-** Rasm chizishda yordamchi va ortiqcha chiziq va shtrixlarni o'chirish uchun yumshoq oqish o'chirg'ichlar ishlatiladi. Yumshoq o'chirg'ichning sifati, qog'oz yuzasidagi qalam izlarini shikast yetkazmay o'chirishi bilan aniqlanadi. Hozirgi kunda o'chirg'ichlarning turlari juda ko'p. Rasm chizganda ko'proq ko'kimtir va oq tusdagilari ishlatiladi. Qizg'ish tusdagi o'chirg'ichlardan tasvir chizganda foydalanilmaydi, chunki uning tarkibida "qumqog'oz" parchalari

bo'lib, qog'ozni titib yuboradi. Keraksiz chiziqlarni o'chirishda o'chirig'ichni qattiq bosmaslikka, iloji boricha o'chirig'ichdan kamroq foydalanishga odatlanish lozim. Oq o'chirig'ich qattiqroq bo'lsa, yumshatish uchun uni 2-3 kun mobaynida, kerosin yoki benzina solib qo'yish kerak. So'ng o'chirig'ich qaynagan issiq suvga solinsa, yumshoq holatga keladi. Ish jarayonida o'chirig'ichni doim qo'lda ushlab o'tirish yaramaydi, chunki qo'l terlashi oqibatida, o'chirig'ich namlanadi va o'chirishda rasmga shikast yetadi. Akvarel bo'yog'i bilan ishlash uchun rasm tayyorlashda iloji boricha o'chirig'ichdan kamroq foydalanish maqsadga muvofiq.

**Planshet-**Talabalarga rasm chizish uchun maxsus planshet tayyorlashni va vatman qog'ozni ho'llab tortishni o'fgatish lozim. Tayyorlangan yarim vatman qog'oz o'lchami planshetga nisbatan 2-3 sm kattaroq bo'lib, chetlari buklanadi. Buklangan tomonlaridan tashqari, qog'ozning ichki qismi mo'yqalam yoki bir parcha paralon bilan ho'llab chiqiladi. Qog'oz suvni o'ziga tortganidan so'ng, u planshet ustiga qo'yiladi va quruq buklangan tomonlari PVA yelimi bilan reykalarga yopishtiriladi hamda quritiladi.

Tajaba molbert oldida qanday o'tirishi, hamda qalamni qanday ushlashi kerakligi rasmda ko'rsatilgan. Molbert oldida egilmasdan, qalam ushlab turgan qo'lni, bukmasdan to'g'ri o'tirish talab etiladi.


Qog'oz yuzasida qo'lni bukmasdan buyumni tasvirlash ancha qulay. Iloji boricha xotirjam bo'lish va yengil harakat qilib, buyumdan ko'zni uzmaganda holda tasvirlash zarur.


Qalam asosan uch barmoq bilan ushlanadi. Uni ushlagan vaqtda erkin ushlashga qo'lni o'rgatish kerak. (30-arasm). Qalamni qattiqroq yoki bo'shroq bosish orqali har xil chiziqlarni chizish mumkin. Tasvir chizganda qalamni bo'shroq ushlash kerak. Qalam uchi tasvir chizishga tayyorlanganda, uning grafit qismini 5-6 mm, yog'och qismini esa 15-20 mm qilib yo'nish kerak. Chunki bunday yo'nilgan qalam chiziqlarning aniq-ravshan ko'rinishiga yordam beradi. 30- a rasmda yumshoq qalamlarni ushlash yo'llari ko'rsatilgan. Bunday usul rasm chizish uchun eng maqbulidir.

Qalamtasvir mashg'ulotlari uchun maxsus o'quv xonasi (ustaxona) bo'lishi lozim. Bu ustaxona muayyan talablarga javob berishi zarur. Model tusini yaxlit ko'rishga xalaqit bermasligi uchun, quyosh nuri o'quv xonasining o'ng yoki chap tomonidan tushishi maqsadga muvofiq.


Qalamtasvir uchun mo'ljallangan o'quv xonasining devorini och kulrangga, shiftini oq rangga bo'yash tavsiya etiladi. Bunday xonada naturaning soyasi yaxlit ko'rinadi. Mashg'ulotlarda natura yonidan (chap yoki o'ng) yoki yuqoridan yoritilsa, buyumlarning shakli aniq ko'rinadi. Maxsus elektr yoritgichlar (safit) turli tusdagi soya - yorug' berish imkoniyatini yaratadi,













201









## UMUMIY XULOSA

Tasviriy san`atda, borliqni aks ettirish o`z-o`zidan paydo bo`lmadi. U inson paydo bo`lishi bilan shakllanib taraqqiy eta boshladi. O`rta asrga kelib o`zining eng yuqori cho`qqisini namoyon qildi. Evropa bu borada dynuo sivilizatsiyasiga o`ziga xos o`ringa ega. Zamonasining eng buyuk tasviriy san`at arboblari etishtirib berdi va shularning mehnati natijasida shakllandi.

Men o`zimning malakaviy bitiruv ishimda “Iqtisoshlashgan maktablarda qalamtasvir fanini o`qitishning ilmiy metodik asoslari” haqidagi umumiy tushunchalarni bayon etdim. Bu ishim bilan men, kelajak avlodlarimiz bo`lgan bolalar ongini, tafakkurini boyitish, tasviriy san`t shaydolarini shakllantirishdek, byuk maqsad sari intiladigan, zamonamiz tayanchlarini, yetuk shaxslarni yetishtirib berishdek mas`uliyatli vazifaga o`z hissamni qo`shganimdan mamnunman. Ko`nglida tasviriy san`atga bo`lgan ishtiyoqi baland kishilardan, hech qachon vatan xoinlari chiqmaydi. Bunday kishilar, vatan kelajagi uchun uning gullab yashnashi uchun, qo`llaridan kelgan barcha ishlarni qilishga, tayyordirlar. O`z bilim va zakovatlarini, namoyon qila olishlariga iymonimiz komildir. Men o`z malakaviy bitiruv ishimda oldimga qo`ygan maqsadimga erishdim.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T., 1992.
2. O'zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi qonuni. -T., 1997.
3. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. T., 1997.
4. O'zbekiston Respublikasining Davlat ta’lim standarti, T.2003.
5. Karimov I.A. Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. G' O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining 9-sessiyasida so'zlagan nutqi. - T.:Sharq, 1997.- 53b.
6. Shaxtaxtinskiy M. K voprosu izucheniya “Analitiki” Aristotelya. G' Ocherki istorii shkolo` i pedagogicheskoy mo`сли narodov s drevneyshix vremen do kontsa 18 v.- Moskva: MGU, 1995.-S.-34-46.
7. Lebedev K. A. Aporii Zennona v razdumyax filosofov. G`G` Filosofiya Vostoka i Zapada.- Sb.nauch. trudov – M: MGU.- S.117.
8. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar.- T.: Moliya, 2003.-17b.
9. Sayidahmedov N. Pedagogika fani metodologiyasi yohud uning zamonaviy mazmuni haqida: Amaliyot va nazariyaG`G` Ma’rifat.-2004,- 21 fevral.
10. Rubinshteyn L. S. Psixologiya lichnosti.-M.: Prosveshenie,1991-237 s.
11. Raykov B. E. Slovesno`e formo` i metodo` obucheniya.-M.: Znanie,1997.- 282 s.
12. Pavlov I. P. Psixologiya vo`sshego razuma.-M.: Prosvhehenie, 4-e izd., 1987.-434 s.
13. Botir Boymetov Qalam tasvir “MUSIQA” nashriyot TOSHKENT-2006
14. B.Z. Azimova “Natyurmort tuzish va tasvirlash metodikasi”Toshkent – O`qituvchi-1984.
15. B.Z.Azimova ,R.Rajabov,S.F.Abdirasulov,Tasviriy san`atga oid atamalarning izohli lug`ati.Toshkent -1994.
16. S. Abdiraulov Tasviriy san`at atamalari. Toshkent- 2003
17. G.V.Beda. JIVOPIS. Moskva -1989.
18. L.O.Barsh. Nabroski I zarisovki.-Moskva -1970.

- 19 B.S.Kuzin. Nabroski I zarisovki.-Moskva -1970.
- 20 A.P.Yashuxin. JIVOPIS. Moskva -1990.
- 21 X.Egamov.Bo`yoqlar bilan ishlash. –Toshkent . “O`qituvchi”1981.
- 22 R.Hasanov.”Maktabda tasviriy san`at o`qitish metodikasi”Toshkent.-  
“Fan”.2004.
- 23 N.Oydinov. Rassom o`qituvchilar tayyorlash muammolari. Toshkent.-  
“O`qituvchi” –“Ziyo Noshir”, 1997.
- 24 M.Nabiyev. Rang shunoslik. Toshkent “O`qituvchi”, 1995.
- 25 N.Rastovtsev. Akademicheskiy risunok.Moskva,1985.
- 26 V.S.Kuziin. voprosi izobrazitel`nogo tvorchestvo.-Moskva.1971.

